

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Namangan Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti

4-kurs 401-guruh talabasi

ATABAYEVA ZILOLA TOJIMATOVNAning

“Navoiy lirikasida takrorga asoslangan san’atlar”

mavzusida yozgan

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

F.Karimova

Namangan -2012

Bitiruv malakaviy ishida Alisher Navoiy lirikasida iste’foda etilgan she’riy san’atlar, xususan, takrorga asoslangan san’atlar tadqiq etilgan. Unda tasdir, takrir, mukarrar, raddul – mat’la kabi poetik san’atlarning mohiyati, turlari o’rganilgan, shoir she’riyatidan keltirilgan misollar orqali fikrlar asoslangan. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

MUNDARIJA

So’z boshi.....	3
I bob. Alisher Navoiy – buyuk so’z san’atkori	6
1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari.....	6
1.2. Navoiy lirikasi – yuksak badiiyluk mezonlari.....	11
II bob. Navoiy lirikasida she’riy san’atlar jilosi.....	17
2.1. Takrir san’ati va mukarrar san’ati	17
2.2. Tasdir san’ati va tasbig’ san’ati	26
III bob. Navoiy lirikasida raddul-matla’ san’ati	30
3.1. Raddul-matla’ san’ati – badiiy mahorat mezonlaridan biri.....	30
3.2. Yarim raddul-matla’ san’ati	42
Xulosa.....	46
Ilovalar. Slaydlar	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	59

Soʻz boshi

Mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiy lirikasi janriy rang-barangligi hamda tematik-gʻoyaviy yuksakligi bilangina emas, balki ilgʻor fikr-gʻoyalarning oʻziga xos ifodasi bilan ham oʻzbek sheʼriyati tarixida yuksak mavqeyga va shuhratga egaligi hech kimga sir emas.

Umuman, hajm jihatidan beqiyos boʻlgan Navoiyning lirik merosi buyuk gʻoyalar va yuqori badiiylik tabiiy mutanosibligining yorqin namunasi boʻlib, daholigʻazal ijodkor badiiy tafakkurining qudrati va imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shu jihatdan, dastlab ustoz Abdurahmon Jomiy va keyinchalik Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Navoiy sheʼriyatiga nisbatan "koʻb va xoʻb" deya berilgan taʼrif-baho tom maʼnoda oʻrinli hisoblanadi.

Navoiyning lirik janrlar doirasini kengaytirish va poetika jihatidan rivojlantirish, ularning ijtimoiy mohiyatini oshirish borasidagi tashabbuslari yuksak gʻoyalarning mukammal badiiy shaklda ifodalanishi uchun imkon beradigan poetik vositalar topib, ijod jarayoniga keng joriy etish yuzasidan olib borgan jiddiy izlanishlari bilan bevosita qoʻshilib ketgan. Binobarin, Navoiy lirikasining gʻoyaviy-badiiy qimmatini, shoir sanʼatkorligining oʻziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalari doirasi, shuningdek, ularni qoʻllash usullarida yanada aniq namoyon boʻladi.

Oʻn oltita lirik janrdan tashkil topgan "Xazoyinul-maʼniy" devonida maʼnaviy, lafziy va mushtarak sanʼatlarning yuzdan ortiq turi mavjud boʻlib, ularning har biri oʻnlab va yuzlab oʻrinda xilma-xil yoʻnalishda ishlatilgan.

Sharq mumtoz poetikasida maʼnaviy, lafziy va mushtarak atalmish sheʼr sanʼatlari poetik tasvirda turlicha vazifalarni ado etib, har xil uslubiy yoʻnalishni tashkil etadi. Jiddiy eʼtibor berilsa, butunlay boshqa-boshqa guruhga mansub sanʼatlar tamoyil jihatidan bir-biriga yaqin ekanligi koʻzga tashlanib turadi. Binobarin, mavjud sheʼr satrlarini uslubiy vazifalari eʼtibori bilan ham muayyan tabaqalarga ajratish mumkin. Shoir lirikasida qoʻllangan badiiy sanʼatlar va ularning mohiyati hamda turlari xususida maʼlum tadqiqotlar va maqolalar yaratilgan boʻlsa-da, ular yetarli emas. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar ummondan tomchigina, xolos. Shoir sheʼriyati badiiyatini chuqur va atroflicha, tizimli tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vaziflardan biridir. Bu biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslik ilmining aʼsoiy sohalaridan biri boʻlgan ilmiy badeʼga doir dastlabki asarlar arab olimlari tomonidan yaratildi. Bu turdagi asarlar XI asrdan boshlab fors tilida yaratila boshlandi. Xususan, Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogʻa" (XI asr), Shams Qays ar-Roziyning "Al-moʻjam" (1218-1233), Nosiriddin Tusiyning "Meyor ul-ashʼor" (1251-1252), Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyiʼ ul-afkor fi sanoyiʼ ul-ashʼor" (XV asr), Abdulloh Mahmud Husayniyning "Badoyiʼ u-s-sanoyiʼ" (1493) asarlari shular jumlasidandir, Turkiy tildagi Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogʻa" bu sohadagi ilk qoʻllanma edi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida mumtoz sheʼriy sanʼatlarni oʻrganish, asosan, 1960 yillardan keyingi davrga toʻgʻri keladi. Darhaqiqat, oʻzbek adabiyotshunosligiga bagʻishlangan yirik asarlar va ilmiy maqolalarda baʼzan sheʼriy sanʼatlar haqida maʼlumotlar keltirilgan. Ularning koʻpchiligi Alisher Navoiy asarlari bilan bogʻliq holda shoir mahoratini belgilash asosida oʻrganilgan. Jumladan, Yo.Ishoqovning "Oʻzbek tili va adabiyoti" jurnali sahifalarida "Mutoz adabiyot poetikasidan maʼlumotlar" rubrikasi ostida eʼlon qilingan 10 dan ortiq sheʼriy sanʼatlar haqidagi maqolalari, Maqsud Shayxzodaning "Ustod sanʼat xonasida" tadqiqotlari fikrimiz dalilidir¹.

Shu yillarda V.Rahmonovning "Sheʼr sanʼatlari"², A.Rustamovning "Navoiyning badiiy mahorati"³, Yo.Ishoqovning "Navoiy poetikasi"⁴ kitoblari, shuningdek, bir qator olimlarimizning yirik maqolalari yaratildi.

Keyingi yillarda prof. A.Hojiahmedovning "Sheʼriy sanʼatlarni bilasizmi?", "Mumtoz

¹ Ishoqov Yo. Sheʼriy sanʼatlar. Iyhom. Oʻzbek tili va adabiyoti. 1970. 1-son, 88-bet.

² Rahmonov V. Sheʼr sanʼatlari. Xoʻjand, 1972.

³ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –Toshkent: Fan, 1977.

⁴ Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. –Toshkent: Fan, 1983.

badiiyat malohati”, “Mumtoz badiiy lug’ati”, Yo.Ishoqovning “So’z san’ati so’zligi” kabi kitoblari dunyo yuzini ko’rdi. Ularda o’zbek shoirlari, xususan, Alisher Navoiy she’riyatida isti’foda etilgan badiiy san’atlar tahlilga tortilgan. Shoir she’riyati badiiyatini o’rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, hali bu sohada navoiyshunoslar oldida ulkan vazifalar borligi shubhasizdir. Navoiy she’riyatida qo’llangan barcha lafziy va ma’naviy san’atlar, xususan, takrorga asoslangan san’atlarni tadqiqi etish shoirning badiiy mahorati qirralarini chuqurroq va to’laroq o’rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz mavzuni o’rganish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

- mumtoz she’riyatdagi poetik san’atlarning tasnifi xususida ma’lumot berish;
- Navoiy lirikasida poetik san’atlarning o’rni masalasini o’rganish;
- shoir lirikasidagi takrorga asoslangan san’atlarni tadqiq etish;
- tasdir san’atining shoir lirikasidagi namunalarini tahlil qilish;
- shoir lirikasidagi takrir va mukarrar san’ati hamda ularning namunalarini yoritish;
- Navoiy jodida keng o’rin tutgan raddul – matla’ san’ati va uning turlari bilan bog’liq g’azallarni chuqurroq sharhlash;
- shu asosda shoir lirikasida qo’llangan takrorga asoslangan san’atlarning o’rni va ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda Alisher Navoiy lirikasida iste’foda etilgan she’riy san’atlar, xususan, takrorga asoslangan san’atlar tadqiq etilgan. Unda tasdir, takrir, mukarrar, raddul – mat’la kabi poetik san’atlarning mohiyati, turlari o’rganilgan, shoir she’riyatidan keltirilgan misollar orqali fikrlar asoslangan. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv-malakaviy ishi natija va xulosalaridan oliygohlarda "O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fani bo’yicha o’tkaziladigan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Bitiruv-malakaviy ishi so’z boshi, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I bob. Alisher Navoiy – buyuk soʻz sanʼatkori

1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning maʼnaviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari

Mamlakatimiz mustaqil boʻlgach, barcha sohalar erkin ravishda bosqichma-bosqich modernizatsiya qilina bordi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov "Biz oʻz taqdirimizni oʻz qoʻlimizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yoʻlda erishayotgan yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz"⁵, - deb toʻgʻri taʼkidlagan edilar. Haqiqatdan ham, mustaqillik bu oliy neʼmatdir, uni faqat chin qalbdan anglash zarur.

Mustaqil Oʻzbekistonning kelajagi koʻp jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bogʻliq. Ana shunday vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan oq davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

Maʼlumki, maʼnaviyatimizning yorqin sahifalarini ajdodlarimizning salmoqli asarlari tashkil etadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodi yosh avlodning barkamol inson boʻlib kamolga yetishida ulkan ahamiyat kasb etadigan yuksak maʼnaviy xazinadir. Buni chuqur anglagan yurtboshimiz tomonidan 1991 yilni "Alisher Navoiy" yili deb eʼlon qilindi. "Alisher Navoiy yili deb eʼlon qilingan 1991 yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlugʻ keldi, unutilmas sana boʻlib qoldi. Bu yil xalqimizning asriy orzu-umidlari amalga oshdi. Oʻzbekistonimiz davlat mustaqilligini eʼlon qildi va oʻz taqdirini endi oʻzi hal qiladigan boʻlib qoldi".⁶ Mustaqillik tantanalaridan soʻng, Oʻzbekiston Milliy bogʻida Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan shoirga haykal oʻrnatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov shoir haykali ochilishi marosimida soʻzlagan nutqida "Bugun biz bobomiz ruhi oldida taʼzim bajo keltirar ekanmiz, undan avval va undan keyin oʻtgan ulugʻ zotlarning ruhlari ham shod boʻladi, deb umid qilamiz. Oʻz tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq boʻladi. Ishonamizki, Oʻzbekistonimiz tez orada dunyo hamdoʻstligi oʻrtasida oʻziga munosib oʻrinni egallaydi", - deb toʻgʻri eʼtirof etgan edilar.⁷ Buni Alisher Navoiydek buyuk shoirini eʼzozlagan davlatimiz va xalqimizning dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlari tasdiq etib turibdi.

Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak ongliklik, ijodkorlik, jamiyat oldida maʼsuliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish, maʼnaviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish taʼlim tizimida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Maʼlumki, maʼnaviyat - oʻzlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida maʼnaviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Davlat rahbarimizning aksariyat asarlarida mazkur masalaga asosiy eʼtibor qaratilib, uning asosini tashkil etadigan adabiyotimiz maʼnaviyatimizni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etishi koʻp bora taʼkidlanadi. Ana shu yuksak eʼtibor natijasi sifatida respublikamiz mustaqilligining 18 yilligi arafasida nashrdan chiqqan "Adabiyotga eʼtibor - maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor" risolasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Risolada "... adabiyot masalasi bu maʼnaviyat masalasidir"⁸ deb taʼkidlanadiki, bu xulosa naqadar toʻgʻri va haqqoniy eʼtirof etilganligini chuqur anglaymiz.

Maʼlumki, biz butun dunyoni global muammolar, inqirozlar qamrab olayotgan bir davrda yashamoqdami. Ana shu muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish, shu asosda Oʻzbekistonning nurli kelajagini taʼmin etish bugungi kunning dolzarb vazifasi boʻlmogʻi lozim.

⁵ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2008. 3-bet.

⁶ Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. 400-bet.

⁷ Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. 403-bet.

⁸ Karimov I.A. Adabiyotga eʼtibor - maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2009. 23-bet.

Prezidentimiz I.A.Karimov "... biz hozirdanoq taraqqiyotimizning inqirozdan keyingi davri haqida chuqur o'ylashimiz, bu borada uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqish haqida bosh qotirishimiz kerak. Bu dastur iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarini egallash uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'zida mujassam etish darkor"⁹, - degan edilar. Zero, bu dasturlarni amalga oshirishda yosh avlodning har jihatdan etuk, bilimdon va ma'naviyati yuksak bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida esa ma'naviyatimizning go'zal namunalari muhim o'rin tutadi.

Ma'naviy barkamollikka erishish insonni doim o'z yo'lidan adashmay borishida asosiy mexanizm vazifasini o'taydi. "Ma'naviyat - insonni ruhan poklash, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"¹⁰, - deya ma'naviyatga to'g'ri baho bergan edilar prezidentimiz I.A.Karimov.

Ma'naviyat - insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni kuchaytiradi.

Insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida shunday degan edilar: "... har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va ang'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"¹¹. Darhaqiqat, ma'naviy merosimizning g'oyaviy-badiiy jihatdan barkamol namunalari yosh avlodning ongu shuurini va ma'naviy olamini yuksaltirishda alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi avlodning barkamol insonlar sifatida kamolga etishadi mumtoz adabiyotimizning, xususan, Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Ana boshi yurtboshimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor - manaviyatga, kelajakka e'tibor" asarlarida mutafakkir shoirning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yosh avlod tarbiyasidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor beradilar. Xususan, "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida shoir va uning ijodiga juda yuksak baho beradi: "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir...

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, mumtoz adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desa mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir"¹².

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelishi hech kimga sir emas. Bu bebaho meros xalqimiz, ayniqsa,

⁹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. 19-bet.

¹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: O'zbekiston, 2008. 19-bet.

¹¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: O'zbekiston, 2008. 5-bet.

¹² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: O'zbekiston, 2008. 47-bet.

yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy qurodir.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Keyingi paytlarda buyuk ajdodlarimizning so'nmay dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib bormoqda. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy, badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Baku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga muhtasham haykallar o'rnatilgan.

Prezidentimiz xalqimizning asl tabiatida mavjud bo'lgan ana shunday ilmiy-ma'naviy salohiyat va fazilatlarni ta'kidlar ekanlar "Oqqan daryo oqaveradi" degan naqlni tilga oladilar¹³. Darhaqiqat, barcha zamonlarda ham ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish xalqimizning go'zal fazilati bo'lib qolganligini, yuzlab alloma-yu shoirlarimiz xalqimiz dahosining o'lmas timsoliga aylanganligini ko'ramiz.

Xususan, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rahimbobo Mashrab kabi so'z san'atkorlarining ijodiy merosi yoshlarga ona-Vatanga, xalqqa cheksiz muhabbat, mehr-sahovat, vafo-sadoqat, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

¹³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: O'zbekiston, 2008. 49-bet.

1.2. Navoiy lirikasi – yuksak badiiylik mezon

Shoir asarlaridagi teran ma'nolar, hayotiy tasvir va go'zal tashbehlar, nafis va serbo'yoq so'zlar jozibasi, umuman, Navoiy qalamining sehrli kuchi asrlar osha o'z o'quvchilarining qalbini o'ziga rom etib keldi va rom etaveradi. Alisher Navoiy ulug' lirik shoirdir. U Sa'diy, Hofiz, Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi mashhur sharq lirik shoirlarining, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Atoiy, Sakkokiy va Lutfiy kabi o'zbek dunyoviy adabiyoti namoyandalarining eng yaxshi adabiy traditsiyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi, xalq poetik ijodiyotining g'oyaviy-badiiy boyliklaridan unumli foydalandi. Badiiy adabiyotning hayotga, jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilishi uchun kurashgan Navoiy lirik poeziyaning tematikasi, g'oyaviy motivlari va obrazlari sistemasini boyitdi, takomillashtirdi. Hassos shoir lirik turning xilma-xil janrlarida yozilgan she'rlarida insonning murakkab his-tuyg'usi va ruhiy kechinmalarini, hayot va tabiat lavhalarini g'oyat yuksak san'atkorlik mahorati bilan badiiy mujassamlashtirdi. O'zbek lirikasini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan Navoiy zullisonayn shoir sifatida fors-tojik tilidagi lirika xazinasiga ham muhim hissa qo'shdi, o'zbek, ozarbayjon, turkman, tojik va boshqa xalqlar lirik poeziyasining keyingi taraqqiyot bosqichlariga samarali ta'sir etdi. Navoiyning she'rlariga nazira bitish, muxammas bog'lash bir adabiy an'anaga aylandi. Uning ko'pgina she'rlari shu kunga qadar xalq kuylari va klassik maqomlarga jo'r bo'lib kel moqda, bastakorlar Navoiy she'rlari asosida yangi qo'shiqlar yaratmoqdalar.

Navoiy juda katta va boy lirik xazina yaratib qoldirdi. Bu lirik xazinaning asosini 45 ming misraga yaqin o'zbek tilidagi she'rlarini o'z ichiga olgan «Xazoyinul-maoniy» va 12 ming misradan ziyod tojik tilidagi 6 falsafiy qasidadan iborat «Sittai zaruriya» («Olti zaruriyat») hamda yil fasllari tasviriga bag'ishlangan «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») qasidalari tashkil etadi. Bundan tashqari, Navoiyning dostonlarida lirik fragmentlar (lirik, muqaddima, lirik chekinish va lirik xotima), «Nazmul-javohir», «Munshaot», «Vaqfiya», «Muhokamatul-lug'atayn», «Mezonul-avzon» kabi asarlarida ko'pgina mustaqil bayt, fard, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardagi she'riy durdonalar bor.

Alisher Navoiy maktab yoshidayoq badiiy adabiyot bilan shug'ullana boshlaydi. Dastlab boshqa shoirlarning asarlariga taqlid qilib, mashq tarzida lirik misralar bitgan Navoiy ko'p o'tmay mustaqil suratda qalam tebrata boshladi. Uning hayot voqealari haqidagi taassurotlari, his-tuyg'usi, fikr-o'yi, zavqi va didi lirik misralarda ifodalandi va yosh shoir xalq orasida shuhrat qozona boshladi. Bu haqda uning o'zi «Badoeiul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ning «Debocha»sida:

Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazi libosida ado,

Ul nazmga jonni qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardunga qado, (2.1.16.) - deydi.

Adabiyot muxlislari Alisher Navoiydan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u devon tuzish uchun hali vaqt erta, deb hisoblaydi. Navoiyning nihoyatda olijanob va kamtar kishi ekanligini bilgan muxlislari uning lirik asarlarini yig'ib devon tuza boshlaydilar. «... ammmo xalq orasida, -deydi Navoiy «Badoyeiul-bidoya»ning «Debocha»sida» - ming bayt, ikki ming bayt ortiq o'ksukroqkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi!» Shunday qilib, Navoiy she'rlari 1465 yilda birinchi marta kittobxonlar tomonidan devon qilib tuzildi.

Shoir yangi-yangi asarlar yaratdi, mohir va ustoz so'z san'atkor bo'lib etishdi. Uning she'rlarining shuhrati yanada kengroq yoyilib borar, kitobxonlarni maftun qilar va hofizlarning ovozigacha jo'r bo'lar edi. 1470-1476 yillar orasida Navoiy «Badoyiul-bidoya» devonini tuzadi. Bu shoirning o'zi tuzgan birinchi devon edi. «Badoyiul-bidoya» 842 she'rdan tashkil topgan bo'lib, shoir «ba'zi abyotekim xomroq va ba'zi g'azaliyotekim notamomroq erdi, kitobat mutaazzir, balki muhol ko'rin» gani uchun ularni ham devonga kiritadi.

1476-1483 yillar orasida Navoiy ikkinchi devoni «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»)ni tuzadi. Bu devon 693 she'rdan (628 g'azal, 3 mustazod, 3 tajri'band, 5 qit'a, 46 ruboiy, 1 lug'z, 6 muammo va tuyuqdan) tashkil topgan. «Navodir un-nihoya» Navoiy adabiy dahosining yangi va yirik bir mahsuli bo'ldi.

«Badoye ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» Navoiyning lirik kulliyoti - «Xazoyinul-maoniy»ning vujudga kelishiga katta va mustahkam zamin bo'lgan edi. Ijodini lirikadan boshlagan Navoiy qarilik ayyomiga qadar bu adabiy turdan yiroqlashmadi. U dostonlar, adabiy-biografik yoki ilmiy asrlar yaratish bilan band bo'lgan chog'larida ham lirik tur bilan shug'ullanar, yangi-yangi she'rlar bitar edi. Natijada ikki devondan tashqari juda ko'p yangi she'rlar to'planib qoladi, bu she'rlarning soni, Navoiyning ta'kidlashicha, avvalgi ikki devondagi she'rlaridan ko'proq edi, ularni to'plab devon qilish zarur edi, Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan kengashadi, u barcha she'rlarni to'rt devon qilib tuzishni maslahat beradi. Bu maslahat Navoiyning rejalariga muvofiq keladi. Navoiy Jomiyning maslahatidan keyin zo'r g'ayrat bilan ishga kirishib, she'rlarini to'playdi, tahrir qiladi, Husayn Boyqaroning nazaridan o'tkazadi. Shu zaylda u 1491-1498 yillar orasida to'rt devonni o'z ichiga olgan mashhur lirik kulliyoti «Xazoyinul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi»)ni tuzadi.

Navoiy yilning to'rt fasliga qiyos qilib, o'z umrini to'rt bosqichga: yoshlik, yigitlik, o'rta yoshlik va keksalikka bo'ladi, hamda bu bosqichlarning chegarasini belgilaydi: tufuliyat (yoshlik) - 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) - 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuxulat (o'rta yoshlik) - 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha. U «Xazoyinul-maoniy»ning debochasida har bir devonini shu bosqichdan birining mahsuli deb ataydi va shunga muvofiq ularga maxsus nomlar qo'yadi. Chunonchi, uning debochada e'tirof etishicha, har bir devon shoir hayotining ma'lum bosqichidagi samarasi bo'lib, ular qat'iy xronologik chegara bilan ajratilgan va mazmun jihatidan ham bir-biridan farq qiladi.

Biroq ilmiy tadqiqotlar, xususan, Hamid Sulaymonning Navoiy lirikasi teksti asosida olib borgan tekshirish ishlari «Xazoyinul-maoniy» devonlari xronologiyasining nisbiy ekanligini, shoir hayotining turli davrlarida yaratgan she'rlarini devonlarga qat'iy bir xronologiya asosida emas, balki aralash holda taqsim qilganini ko'rsatadi.

To'rttala devonning hajmi bir biridan katta farq qilmaydi: birinchi devonda-840 she'r (11437 misra) ikkinchida-759 she'r (10847 misra), uchinchi 740 she'r (10840 misra) va to'rtinchida-793 she'r (11776 misra) bor. Vaholanki, Navoiyning o'zi keksaligida ko'proq she'rlar bitganini, keyingi yozgan she'rlarining soni avvalgi ikki devonidagi she'rlar sonidan hiyla ziyod ekanini ta'kidlaydi. Devonlardagi she'rlarning janriga qarab taqsimlanishida ham ma'lum bir tartib va miqdorga rioya qilingan. «G'aryibus-sig'ar» va «Navodirush-shabob»ga 8 janrdagi, «Badoyiul-vasat» va «Favoyidul-kibar»ga 9 janrdagi she'rlar kiritilgan, devonlarning etakchi janri bo'lgan g'azallar esa bab-barovar taqsimlangan, har bir devonga 650 tadan g'azal kiritilgan va hokazo.

Bularning barchasi «Xazoyinul-maoniy» devonlarining xronologiyasi nisbiy va nomlanishi shartli ekanini ko'rsatadi. «Munshaot»dagi: «Burungi ikki devon ash'ori birla so'ngra aytilgonlarni qo'shib, tartib bila to'rtga ayrildi», - so'zlari ham shu mulohazani quvvatlaydi.

Navoiy devonlarining to'rt redaksiyasi asosida uning o'zbek tilidagi she'rlarining asl xronologiyasini belgilash mumkin. Adabiyot havaskorlari tomonidan 1465-1466 yillarda tuzilgan devon bir bosqichni tashkil etsa, «Badoyiul-bidoya»dagi yangi she'rlar ikkinchi bosqichni, «Navodirun-nihoya»dagi she'rlar uchinchi bosqichni va «Xazoyinul-maoniy»dagi avvalgi ikki devonda bo'lmagan she'rlar to'rtinchi bosqichni tashkil etadi. Adabiyotshunos Xamid Sulaymon shu usulda Navoiyning o'zbek tilidagi she'rlarining asl xronologiyasini, «Xazoyinul-maoniy» devonlaridagi she'rlarning nisbiy xronologiyasini belgilaydi.

Alisher Navoiy devon tuzish an'analariga, asosan, rioya qiladi. Biroq u to'rttala devonini ham she'riyatning etakchi janri bo'lgan g'azallar bilan boshlab, bu an'analar doirasidan tashqari chiqdi.

Navoiy devonlari, uning boshqa asarlari kabi, adabiyot, san'at va ilm-fan ahllarining diqqat-e'tiborini tezda o'ziga jalb qiladi, kitobxonlar orasida shuhrat qozondi. Faktlar Navoiy

devonlarining XV asrning o'zidayoq Movarounnahr va Xurosondagina emas, balki Eron, Ozarbayjon, Sinzyan, Hindiston, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalganini, keyinchalik esa Evropa va hatto Amerika kutubxonalari fondiga kirib borganini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy lirikasi o'rta asrlar o'zbek lirikasining eng yuksak bosqichini tashkil etadi. Ulug' shoir o'zigacha rivojlanib kelgan lirik she'riyatni mavzu, g'oya, vazn va badiiy uslub jihatlarini ulkan mehnat va mahorat bilan misli ko'rilmagan darajada takomillashtirdi.

Alisher Navoiy lirikasining mavzu doirasi juda keng. Undagi eng etakchi mavzu ishq-muhabbatdir. Sharq adabiyotida kuylanadigan ishq ikki turga ajraladi: 1. Haqiqiy ishq. 2. Majoziy ishq.

Haqiqiy ishq deganda, vujudi mutloqqa - Yaratganga, Haqqa, Ollohga bo'lgan muhabbat tushuniladi. Majoziy ishq deganda esa, insonga, borliqqa bo'lgan muhabbat anglashiladi. Majoz, shartli ravishda, biron-bir narsaning o'z - haqiqiy ma'nosi emas, balki boshqa biron narsaga ko'chgan-ko'chma ma'nosini bildiradi. Haqiqiy ishq Olloh muhabbati ekan, mana shu ishqning Olloh yaratgan mavjudotlarga, jumladan, insonga ko'chirilgan shakli majoziy ishq demakdir. Chunki tasavvuf dunyoqarashiga ko'ra, Olloh bu dunyo va undagi go'zal mavjudotni, ya'ni insonni o'z ishq hamda barkamolligining ramzi sifatida yaratgan. Ollohdagi bor fazilatlar U yaratgan mo'jizalarda mujassamlashgan. Demak, insondagi go'zallikni, insoniy muhabbatni kuylash majoziy ishqdir.

Mutafakkir Navoiy o'zining ishqqa falsafiy munosabatini quyidagicha bayon etadi:

Gar Navoiy yig'lasa, ishqing majoziydur dema,
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.

Majozdin menga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatga bu tariqat ishq.

Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,
Qilur majozni nafi ulki behaqiqat ishq (2.3.810).

Navoiyning nuqtai nazaricha, insoniy muhabbat pok nazar bilan yondashilsa, u haqiqiy ishqning o'zginasidir. Navoiyning o'z e'tiroficha, majoziy ishqdan maqsad haqiqiy ishqni kuylashdir. Navoiy singari haqiqat ahli uchun maxsus yo'l edi. Demak, Navoiy asarlarida tasvirlangan insonga muhabbat zamirida Ollohga muhabbat mujassamdir.

«Hayotda Navoiyning chinakam seviklisi bo'lganmi, Navoiy oila qurganmi?» degan savol shoir muxlislarini hamisha o'ylantirib keladi. Bir g'azalda shoir go'yo o'z avlodlariga atay javob bergandek yozgan:

Aylamang bekasligimni ta'n, bir kun bor edi,
Menda ham bir nozanin, chobuksuvor, ey do'stlar (2.1.132).

Shoir «Ey do'stlar, mening kimsasiz, yolg'iz yashaganimni ta'na - malomat qilmanglar. Mening ham bir kun go'zal sevikli yorim bor edi», deya hayotda sevgan kishisi bo'lganligini aniq e'tirof etgan.

Alisher Navoiy lirikasida tabiat, jamiyat, vatan, komil inson, ma'naviyat, axloq sohalarining sanoqsiz muammolari chuqur badiiy tahlil etilgan.

II bob. Navoiy lirikasida she'riy san'atlar jilosi

2.1. Takrir va mukarrar san'ati

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalanigan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, banddarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan goya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lam, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lam, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyisharga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligiga sanaladi.

She'riy san'atlarni qo'llashda me'yori masalasi ham muhimdir. Ya'ni she'rda haddan tashqari san'at qo'llash maqbul bo'lmaganidek, ularga e'tiborsizlik bilan qarab, asardagi g'oyalarni, fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she'r qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Shuning uchun ham buyuk sohibi kalomlar o'z asarlarida she'riy san'atlarni o'rni va me'yori bilan qo'llaganlar. Mavlono Atoiy va Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur, Mashrab va Ogahiy, Nodira va Uvaysiy, Furqat va Muqimiy kabi yetuk shoirlarning g'oyaviy-badiiy barkamol asarlari fikrimiz dalilidir. She'riy san'atlarning har biri muayyan g'oyaviy-badiiy niyatga xizmat qilishi lozimligini ular yaxshi anglaganlar. Buyuk ijodkorlar qo'llagan har qaysi she'riy san'at yuyapi badiiy ifodalash, lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta'sirchanlik bag'ishlash vazifasini bajaradi.

She'riy san'atning qimmati baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan ham belgilapadi. Adabiyotshunosligimizda bu masalaga hamisha alohida e'tibor berilgan. Yashab o'tgan yoki ijod qilayotgan boshqa shoirlar tasvirlagan lavhalar, timsollarni takrorlamaslik maqsadida o'sha ijodkorlarning ifodalari maxsus to'plamlarga jamlab borilgan.

Adabiyotimiz tarixini shu jihatdan kuzatsak, har qaysi ijodkor an'anaviy tasvirlarni mutlaqo yangi badiiy timsol va navhalar vositasida betakror bir tarzda mujassamlantirish yo'lidan borgaylarini kuzatamiz. Masalan, Sharq she'riyatida mahbuba labining shirinligini tasvirlash orqali uning latofatu nazokatini ta'kidlash an'ana bo'lib kelgan. Ammo ana shu badiiy haqiqatni har qaysi shoir yangicha ifodalashi zarur edi. Alisher Navoiy o'zining bir g'azalida husni ta'lil san'atiga asoslanib, mahbuba labining shirinligi haqida hayratomuz badiiy lavha yaratgandi:

Yor og'iz ochmasqa dardim so'rg'ali toptim sabab,
Ko'p chuchuklikdin yopishmishlar magar ul ikki lab (2.6.66).

baytida mahbubaning lablari shirinligidan bir-biriga yopishib qolgani tufayli u go'zal o'z oshig'ining ahvolini so'rash uchun og'zini ocholmayapti degan tarzda lavha mutlaqo yangi taspir namunasidir. Adabiyotimizda bunga o'xshash misollarni minglab keltirish mumkin.

She'riy san'atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo'lishi, yani qo'llanayotgan san'at hayot mantiqiga mos kelishi, unga zid bormasligi shart. Masalan, she'rda qo'llangan tashbih tasvirlanayotgan ikki narsa – mushabbih va mushabbihun bih, ya'ni o'xshatiluvchi va o'xshatilgan ikki narsa o'rtasidagi mantiqiy munosabat zaminiga qurilishi zarur. Jumladan, Xorazmiy, mahbubani

Qading sarvu sanobardek, biling – qil,
Vafo qilg'on kishilarg'a vafo qil

deb tasvirlar ekan, qadning sarvu sanobarga qiyoslanishi mantiqan asoslangan, ya'ni yor qaddining to'g'riligi bilan sarv va sanobar daraxtlarining tikligi o'rtasidagi o'xshashlik hayot haqiqatiga to'g'ri keladi. Shoir mahbuba qomatini majnuntolga o'xshatsa, yana shu haqiqat buzilgan bo'lardi, zero tiklik jihatidan tasvirlanayotgan ikki narsa o'rtasidagi muvofiqlik saqlanmagan bo'lurdi. Ijodkor sevimli ma'shuqa belini noziklik jihatidan qilga qiyoslaganda ham hayot haqi qatiga zid bormaydi. Chunki ushbu mubolag'ali tasvirda ham bel va qil tushunchalari o'rtasidagi mantiqiy muvofiqlikka rioya qilingan.

Adabiyotshunosligimiz tarixiga murojaat qilsak, hamma asrlarda she'riy san'atlarni qo'llash borasidagi ushbu me'yor she'r va ilm ahlining diqqat markazida bo'lib kelganiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, Alisher Navoiy qalamiga mansub «Majolisun nafois» asarida Husayn Boyqaroning ushbu sohadagi salohiyati haqida so'z yuritilar ekan, bir voqea hikoya qilinadi. Unda aytilishicha, bahor kunlarvdan birida Mavlono Lutfiy bilan Alisher Navoiy uchrashib qolishadi. Lutfiy yog'ayotgan yomg'irga ishora qilib, Amir Xisrav o'z g'azallaridan birida shu xususda nafis bir lavha chizganini eslatadi: mahbuba bahor ayyomi bir tomon borar ekan, yomg'ir tufayli yerga yiqilay debdiyu, nozikligidan yomg'ir rishtasini ushlab turib olibdi. Navoiy tasvirdan hayratga tushib, saroy axliga ham so'zlab beribdi. Ammo hammani lol qoldirgan bu lavhaga Husayn Boyqaro e'tiroz bildiribdi. Navoiy buning boisini so'rganida, hukmdor «ul e'tiroz budurkim, ul yog'in qatrasi yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtag'a dag'i hamul holdur. Rishtakim, mayli quyi bo'lg'ay, aning madadi bila yiqiladurg'on o'zin asramog'i mahodsur» deb javob beribdi. Demak, Xisrav Dehlaviy tasvirida qo'llangan mubolag'ada she'riy san'at bilan hayot haqiqati o'rtasidagi muvofiqlik, mantiqiy asos buzilgan. Shunday ekan, har qaysi ijodkor she'riy san'atlardan foydalanishda ushbu qoidaga izchil amal qilishi zarur hisoblangan. Binobarin, mumtoz she'riyatdagi san'atkorlik muammolarini o'rganayotgan tadqiqotchi hamisha bu jihatga e'tibor berishi lozim.

She'riy san'atlarga qo'yiladigan talablarning yana biri ularda ifodalangan timsollarning o'quvchilar ommaskga tushunarli bo'lishidir. Bu timsollarni o'quvchi anglab yetmasa, ular o'z mohiyatini yo'qotishi muqarrar.

Masalan, ijodkor o'zi tasvirlayotgan shaxs, buyum, tuyg'u va boshqalarni biron narsaga qiyos qiladigan bo'lsa, o'sha narsa o'quvchiga tanish bo'lishi, uni o'qiganda, ko'z oldida o'ziga tanish muayyan bir tasvir, qiyofa gavdalanishi shart. Alisher Navoiyning

Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'ach quyosh (2.6.44).

baytidagi san'atga diqqat qilsak, unda mahbuba ruxsorini yashirgandan so'ng oshiq ko'zidan yoshlar oqishi manzarasi quyosh botgach, yulduzlarning paydo bo'lishiga qiyos qilingan. Ushbu tabiiy manzara o'quvchiga yaxshi tanish bo'lgani uchun ham tasvir o'z maqsadiga erishgan.

Talmeh san'ati qo'llanganda ham bu masalaga alohida diqqat qiratish lozim bo'ladi. Chunki shoir ishora qiladigan afsopa, tarixiy voqealar qahramonlarii nomlari ko'rsatilayotgan shaxslar albatta keng o'quvchi ommasiga yaxshi tanish bo'lishi zarur. MunisXorazmiy

Balo ko'hsorining farhodi menmen,
Junun tasvirining behzodi menmen

deb yozar ekan, baytda keltirilgan Farhod va Behzod ismlari uquvchiga yaxshi tanish bo'lgani uchun ham shoirning badiiy niyati ro'yobga chiqadi.

She'riy san'atlar o'quvchilarning bilim darajasiga muvofiq bo'lishi zarur. O'quvchi o'z xalqining tarixi, madaniyati, Urf-odatlarini, og'zaki va yozma adabiyoti bilan qanchalik yaxshi tanish bo'lsa, she'riy san'atlar mohiyatini ham shunchalik oson aiglab yetadi va shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlar mag'zini chaqa oladi. Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub bir g'azalning quyidagi baytiga nazar tashlaylik:

Ravzada kavsar qirog'inda xayol ettim Bilol,
Yuz aro lab, lab uza shabrang xolingni ko`rub (2.4.38).

Diqqat qilsak, shoir mahbuba yuzini jannat bog'i – ravzaga, labini jannatdagi kavsar bulog'iga, xolini esa Bilolga qiyoslab, go'zal bir lavha yaratganining guvovi bo'lamiz. Ravza, kavsar so'zlari ma'nosi ko'pchilikka ayon. Ammo nega shoir mahbuba xolini Bilolga qiyoslayapti? Bunga qanday mantiqiy asos bor? Ya'ni Bilolning o'zi kim? Bu savolga javob topa olmagan o'quvchi shoirning g'oyaviy niyatshta ham, badiiy san'at nafasatini ham tushunib yetmasligi aniq. Ma'lumki, hazrati Bilol Muhammad rasululloh sallolohi alayhi va sallamning eng sodiq sahobalaridan biri bo'lib, habashlardan edi. Islom dini yo'lidagi fadokorona xizmatlari tufayli u zotning jannat visoliga muyassar bo'lishlarini payg'ambarymiz bir necha bor ta'ksslag'a» edilar. Demak, ana shu hakdqtga asoslangan shoir mahbuba xolini hazrati Bilolga o'xshatgan edi.

Ushbu ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchigina Alisher Navoiy qo'llagan san'at mohiyatini anglab yetishi hamda uning badiiy salohiyatidan hayratlanishi mumkin.

Yana bir talab she'riy san'atlarning nafasat qoidasiga ham muvofiqligi, har qaysi badiiy lavha, timsolning o'quvchida go'zal his-tuyg'ular, tasavvurlar uyg'otishi zarurligidir. Mumtoz she'riyatimizning bezavol obidalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorlar qo'llagan har qaysi she'riy san'at hayotiy manzaralar vositasida ijobiy xislatlarni kamol toptirishga ham xizmat qilganini ko'ramiz.

“Takrir” “takrorlash” ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi.¹⁴ Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi. Chunonchi, Alisher Navoiy g'azalidagi

Dema, ishqim nayladikim ro'zgoringdur qaro,
O`rtadi**, ey qotili nomehribonim, **o`rtadi (2.3.340).

baytining ikkinchi misrasi boshidagi «o`rtadi» so'zini bayt oxirida yana bir takrorlar ekan, shoir shu so'z anglatayotgan ma'noni ta'kidlash maqsadini ko'zlagani ko'rinib turibdi.

“Mukarrar” so'zi “qayta-qayta”, ust-ustiga» ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi.¹⁵ Atoulloh Husayniy o'zining «Badoyi'us-sanoyi'» asarida «Rashidi Vatvot depturkim, shuaro mukarrar deb andoq she'rni ayturkim, bir baytta bir lafzni keltirurlar va o'zga baytta aning ta'sirida o'shul lafzni yana keltirurlar», – deb ta'kidlaydi va Asjadiy she'ridan misol keltiradi. Demak, allomaning yozishicha, ushbu san'atda bir baytning ikki misrasida keltirilgan ikki juft so'z keyingi bayt misralarida ham takrorlanishi kerak. Ammo she'riyatimizda mukarrarning boshqa bir ko'rinishi, ya'ni bir baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llash san'atidan ko'proq foydalanilgan.

¹⁴ A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999, 100-bet.

¹⁵ O'sha asa, 1 00-bet.

Bu haqdagi ma'lumotni Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarining Husayn Boyqaro ijodiga bag'ishlangan sakkizinchi majlisida uchratamiz. Muallif hukmdor shoirning «Re» harfi bilan tugallanuvchi g'azallari, xususan,

Bo'lsam uy kunjida, ashkim qatras gulnor erur,
Azmi gulzor aylasam, gul ko'zlarimga xor erur (2.5.411).

matla'si bilan boshlanuvchi she'ri haqida fikr biddirar ekan, «Furqatda ko'ngul qatra-qatra qon erkanin burung'i misra'da aytib, so'nggi misra'da o'tkon mukarrar lafz muqobalasida «Olloh-olloh» lafzi ham mukarrar va asru muassir ado topibdurkim:

Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur,
Olloh-olloh, bu ne hajri byohadu poyon erur» (2.5.411).

deb yozadi. Dyomak, shoir fikricha, mukarrar lafz san'ati baytning har ikki misra'svda juft so'z qo'llashni nazarda tutadi. Navoiy ta'kidlayotganidek, bu san'at baytdagi musiqiylikni kuchaytiradi, binobarin, g'azal jilosi, jozibadorligini orttiradi.

Alisher Navoiy ushbu san'atning she'rdagi ahamiyatiga alohida e'tibor bergani tufayli o'z g'azallarida ham, dostonlarida ham juft so'zlarni qo'p qo'llaydi. Shoir g'azallarini kuzatar ekanmiz, juft so'zlar:

Dam-badam ko'nglum berib jon naqdi istar vaslini,
Olloh-olloh, telba ko'nglumning ajab savdosi bor (2.4.394).

bayti misralari boshida,

Tifl avroq ichra **bir-bir** bargi gul tergan kabi,
Nomayi hijron aro **tim-tim** sirishkim qonidur (2.4.396).

baytidagi ikkala misra o'rtasida,

Ayshu ishrat jomidan bo'lsun yuzi **gul-gul**, valek
Ko'ngliga g'am gulbunidin **xor-xore** bo'lmasun (2.4.361)

bayti misralari oxirida,

Tola-tola nay o'qung ko'ksunda go'yo sindikim,
Tevraluptur notavon ko'nglumda **bir-bir** tolalar (2.4.414)

baytidagi birinchi misra boshi va ikkinchi misra oxirida,

O'tarsen **o'ynay-o'ynay** men gadoyi xasta yo'l uzra,
Qolurmen bir qiyo boqmoq uchun **yolbora-yolbora** (2.3.403)

baytidagi birinchi misra o'rtasi va ikkinchi misra oxirida,

Bodadin **gul-gul** ko'rub ul yuzni, oning hajridin
Chok-chok o'lg'an ko'nguldek **tah-batah** qon bo'ldi gul (2.4.315)

bayti misralarining uch ruknida,

Yetishsa ishq aro yuz mehnatu balo, qadah ich,
Nafas-nafas quyubon may **to`la-to`la** qadah ich (2.4.226)

baytida esa ikkinchi misraning ikki ruknida mohirona qo`llanganini ko`ramiz. Demak, mukarrar lafz raddul ajuz alas-sadr san'atiga o`xshab bayt misralarining turli o`rinlarida qo`llanishi mumkin.

Mukarrar lafz san'ati XV asrdan keyingi o`zbek she'riyatida ham qo`llanib keldi. Jumladan, Zokirjon Furqat ijodida bu san'atning xilma-xil ko`rinishlarini uchratamiz. Chunonchi, uning

Avval-avval lutfingiz haddin ziyod erdi menga,
Emdi-emdi marhamat kamrog`ingizga dog`man (2.4.358)

kabi ko`plab baytlari fikrimizning dalilidir.

Umuman, shoir g'azaliyotida qo`llangan takrir va mukarra san'atlari baytlarning musiqiylikini, ohangdorligini, jozibadorligini ta'minlash bilan birga, ularning g'oyaviy mazmunining yanada yuksak bo'lishiga, lirik qahramon hissiyotlarining, qalb kechinmalarining chuqur va yorqin ifodalanishiga xizmat qilgan.

2.2. Tasdir san'ati va tasbig' san'ati

Alisher Navoiy o'zining poetik asarlarida fikrning obrazlilik va ta'sirchanligini ta'minlaydigan, ma'noni bo'rttirishga, kuchaytirishga xizmat qiladigan, ohangdorlik va musiqiylikni oshiradigan lafziy san'anlarning turli ko'rinishlaridan foydalandi. Lafziy san'at turlaridan biri – tasdir san'ati poetikada muhim stilistik vosita hisoblanadi. Bu san'at o'zbek tili leksikasining stilistik figurasi sifatida nihoyatda murakkab vosita bo'lib, u klassik adabiyotda keng qo'llanilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida tasdir san'ati yordamida so'zni o'ymakorlarcha ishlatib, o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlari kengligini yana bir bor namoyish qildi. Ayni vaqtda ulug' shoirning bu poetic san'atini yaratishdagi mahoratini ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, klassik she'riyatda tasdir san'ati so'z qaytarig'i asosida yaratiladi, ya'ni bayt misralarida bir so'zni qaytarib qo'llash orqali hosil qilinadi. Bunda birinchi misra boshida qo'llanilgan so'z, ikkinchi misra oxirida yana aynan takrorlanadi. Arabcha tasdir so'zining lug'aviy ma'nosi ham xuddi shu ma'noni anglatadi. Tasdir san'ati haqida she'riy san'atlarga bag'ishlangan asarlarda va maxsus ilmiy maqolalarda qimmatli ma'lumotlar berilgan. Tasdir san'ati bayt misralarida takrorlanib kelishi jihatidan yana bir she'riy san'at tasbega o'xshab ketadi. Lekin she'riyatda qo'llanilishiga ko'ra, bir-biridan katta farq qiladilar.¹⁶

Alisher Navoiy ma'noni emotsional kuchaytirish uchun shakldosh so'zlarni bayt misralarida takror qo'llaydi. Ushbu baytda tasdir san'ati "ul" ko'rsatish olmoshi orqali hosil bo'lgan:

Ulki derlarkim suluk ahliga yo'l,
Bir qadamdur yaxshi voqif bo'lsa ul (2.4..315).

Ko'rinadiki, Navoiy birinchi misra boshidagi ulki so'zini ikkinchi misra oxirida qaytarib o'zakdosh so'zlardanmohirona foydalangan. Masalan, "Lison ut-tayr" muqaddimasidan keltirilgan mazkur baytdagi "qaro" so'ziga e'tibor beraylik:

Yuz qarolig' oncha bo'lmish jahl aro,
Kim ko'zumga qildi olamni qaro (2.5.115).

Birinchi misradagi "qfro" so'zi "yuz" so'zi bilan birikma hosil qilib, -lig' so'z yasovchi qo'shimcyfsi bilan birgalikda "yuz qarolig' " – uyatlik, sharmandalik ma'nolarida ishlatilgan. Ikkinchi misra oxiridagi "qaro" esa qorong'u; g'amli, qayg'uli ko'rinish kabi mazmunda qo'llanilgan. Bu yerda uyatlik, sharmandalik ma'nosini bildiruvchi "yuz qarolig' " birikmasi bilan qayg'uli, g'amli, g'ussali ma'nosidagi "qaro" so'zi bir-biriga ma'no jihatidan butunlay boshqa-boshqadir. Lekin shoir tasdir san'ati vositasida bu shakldosh so'zlardan bayt misralaridagi fikrni ravon ifodalash uchun foydalangan. Shuningdek, ikki xil ma'nodagi o'zakdosh so'zlar orqali baytda poetic rang-barangligi, ohangdoshlik va misralar jarangdorligi ta'minlangan.

Sharq she'riyatida ko'p qo'llaniladigan, ya'ni baytda bir so'zni qayta takrorlab, misralarni bir-biriga bog'laydigan, ularning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan lafziy san'atlardan yana biri tasbig' san'ati hisoblanadi. Navoiyshunos olimlar A.Rustamov va Yo.Isoqovlar o'zlarining klassik poetikaga oid tadqiqotlarida mazkur san'atni "Tashobehul-atrof" deb ataganlar. ¹⁷


Tasbig' san'ati asosan birinchi misra oxirida qofiya bo'lib kelgan so'z, ikkinchi misra boshida qaytariladi. Bunda bayt misralari bir-birlariga bog'lanadi. Tasbig' san'ati so'zlarning joylashish o'rniga, qayta qo'llanilishiga ko'ra boshqa takror va qaytariqli san'atlardan farq qiladi. Takrir, iltizom, qaytariq, hojib, tardi aks kabi san'atlarda so'z ba so'z birikmalari bayt misralarining bosh qismida, o'rtasida hamda misralar oxirida qayta qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi sheriylar san'atlarda so'zlarning ishlatilish o'rnini chegaralangan

¹⁶ Z.Hamidov. Navoiy badiiy san'atlari. – Toshkent.: 2001, 32-bet.

¹⁷ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent.: 1979, 50-bet.

emas. Aksincha, tasbig' san'atining o'z qoidasiga ko'ra, bayt misralaridagi so'z takrorining o'rni qat'iy ba o'zgarmasdir. Tasbig'li baytlarda har doim birinchi misra oxiridagi so'z, ikkinchi misra boshida takrorlanib keladi. Bu esa bayt misralarining bir-biriga o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Ikkinchidan tasbig' takrori misralar mazmunini, ularning ohangdoshligini, talaffuz uyg'unligini hamda ta'kidni ifodalaydi.

Tasbig' san'ati so'zlarning joylashishiga ko'ra tasdirga o'xshab ketadi. Lekin, mohiyatiga ko'ra bu san'atlar bir-birini inkor etadilar. Tasdirga baytning birinchi misrasi boshida qo'llanilgan so'z, ikkinchi misra oxirida takrorlanadi. Tasbig'da esa buning aksi, birinchi misra oxirida ishlatilgan so'z ikkinchi misra boshida qayta qo'llaniladi. Ularning bir-biridan farqini ushbu chizmada ham ko'rishimiz mumkin:



A¹-birinchi misra boshi;
A²-ikkinchi misra oxiri;
B¹-birinchi misra oxiri;
B²-ikkinchi misra oxiri;
A¹ + A²=tasdir;
B¹ + B²=tasbig'.

Navoiyning nazmiy asarlarida tasbig' san'atining turli xil grammatik shakllarda, boy leksik vositalar asosida hosil qilinganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, shoir bu san'atni yaratishda o'bek adabiy tilning o'z va o'zlashgan qatlamdagi so'zlarni, shuningdek, so'z formalari va turli so'z birikmalarini ustalik bilan ishlatgan. Shoir asarlari leksikasi materiallari asosida tasbig' san'atini hosil qilishda ishtirok etgan so'z va so'z birikmalarini asosan 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy so'zlar.
2. Arabiy so'zlar.
3. Forsiy so'zlar.

1. Umumturkiy so'zlar – shoir g'azallarida tasbig' san'atini yaratishda sof turkiy so'zlarning grammatik shakllari hamda so'z birikmalaridan ustalik bilan foydalangan. Mazkur baytda “yuk” so'zining birinchi misra oxirida va ikkinchi misra boshida qaytarilishi natijasida tasbih san'ati hosil bo'lgan.

Yulabon e'niga beandoza yuk,
Yuk tashirdin qolmayin egnida tuk (2.4.324).

Baytda “yuk” (ortilgan narsa, og'irlik) so'zining takrorlanishi, birinchidan, misralarni bir-biriga bog'langanligini tasdiqlasa, ikkinchidan, bayt mazmuni oydinlashtirilgan, fikr qayta ta'kidlangan.

Quyidagi baytda ham tasbig' san'atining go'zal namunasi mavjud:

Furqatingdan za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rindin erur pargolalar (2.5.38).

Shoir lirikasida turkiy so'zlardan tashqari arabiy so'zlar takrori vositasida ham hosil qilingan ko'p uchraydi:

Noqis uldurkim o'zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot ayagay (2.5.84).

Shoir she'rlarida forsiy so'zlarining takrori asosida ham tasbig' san'ati yaratilgan:

Bor edi shohi jamol avjida moh,
Moh paykarlar – sipoh, ul erdi shoh (2.4.438).

Xullas, tasbig' san'ati ham lafziy san'at turlaridan hisoblanib, so'zlarni qaytarilish o'rniga ko'ra yaratiladi. Shoir g'azallarini kuzatish natijasi shuni ko'rsatadiki, mazkur san'atni hosil qilishda so'z o'zaklari muhim vositadir. Chunki, har bir so'zni qayta qo'llanilishining o'rnini muhimligidan tashqari, ma'noni ham kuchaytirib kelgani diqqatga sazovor. Bu borada shoir tasbig' san'ati orqali birinchidan, misralarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatsa, ikkinchidan, bayt musiqiyligini, misralar ohangdoshligini ta'minlagan. Uchinchidan, bayt mazmundorligini oshirish, fikrni qayta ta'kidlash, bo'rttirish kabi xususiyatlarga ham katta e'tibor bergan.

III bob. Navoiy lirikasida raddul-matla'' san'ati

Raddul-matla'' san'ati – badiiy mahorat mezonlaridan biri

Radd ul matla' g'azal uchun xos bo'lgan va she'rning semantik sintaktik strukturasi bilan aloqador she'riy san'at. Bu san'at 10-11 asrlarda atoqli fors shoirlari (Ro'dakiy, Nosir Xis-rav, Anvari, So'zaniy, Sayfi Farg'oniy, Hasan Dehlaviy, Ibn Yamin, Hofiz va boshqalar) she'riyatida uchrasa-da, biroq ana shu davrlarda yaratilgan poetikaga doir asarlarda qayd etilmagani. «Raddul-matla'» termini birinchi marta Qamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning «Badoe ul-afkor fi sanoe' ul-ash'or» (1489) asarida tilga olinadi. Koshifiy ta'rifining o'zbekcha iazmuni quyidagicha: «Raddul-matla' so'nggi davrdagilar bu amalni (ishni) san'atlar jumlasidan hisoblaganlar va u shundan iboratki, shoir matla'dagi misraning qofiyasini keyingi baytda keltiradi». Avvalo, Koshifiy ta'rifi, «raddul-qofiya»ga daxldor bo'lib, bu san'atning mohiyatini ifoda qilmaydi. Bu san'atda faqat qofiya emas, balki butun misra takrorlanadi. Shuningdek, misra faqat matla'dan keyingi baytda emas, balki maqtada ham takrorlanishi mumkin. Shu jihatdan hozirgi zamon tadqiqotchilaridan eron olimi Doiy Javodning she'riy san'atlarga bag'ishlangan asarida raddul-matla'ga berilgan ta'rif ancha to'liq hisoblanadi: «Raddul-matla' shuki, qasida yoki g'azalning birinchi misrasini maqtada va she'rning oxirida takrorlaydilar». Biz Navoiy g'azaliyotida qo'llangan raddul-matla' namunalari asosida shu san'atga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Raddi matla' g'azal **yoki qasida matla'idagi misralardan birini keyingi baytlardan biri tarkibida yoki maqtada muayyan maqsad bilan yangicha stilistik aspektida takrorlash san'atidir.**¹⁸ Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bu san'at matla' va maqta o'rtasidagi bandlarda, asosan, ikkinchi baytda uchraydi. Shuningdek, «raddul-matla'» terminining o'zi ham shartli. Chunki butun matla' emas, balki ikki misradan biri, va asosan, birinchi misra takror keladi. Biz Navoiyga bo'lgan o'zbek shoirlaridan Atoy va Sakkokiy devonlarida (to'liq bo'lmagan devonlar, albatta) shu san'atga xos bo'lgan ikkita g'azalni uchratamiz.

Ko'rub gultek yuzung jon pora-pora,
Jigar ham qildi ul jon pora-pora.
Ko'ngul Sakkokitek jon birla rozi,
Jigarni qilsa ul jon pora-pora. (Sakkokiy)

Atoy g'azalidagi takrori shartli ravishda yarim raddul-matla' deb aytish mumkin («ko'ngul» radd emas, chunki u radif). Sakkokiyda esa «ham» dan boshqa barcha so'zlar takrorlangan. Lekin mazmun taqozosi bilan grammatik shaklda o'zgarish sodir bo'lgan (o'tgan zamonga mansub ma'no kelasi zamon shart formasiga aylangan). Lekin har ikki holatda ham takror mazmun talabi bilan amalga oshirilgan bo'lib, mantiqan tabiiy chiqqai. Navoiy devonida ham ana shu tipdagi qaytarish namunalari mavjud. Bu, albatta, shoirning doimo mazmun talabi bilan ish ko'rgadashgini ko'rsatadi. Lekin biz shoir g'azaliyotida raddul-matla'ning o'nlab yetuk namunalari uchratamizki, bu hol Navoiy ana shu san'atni ham o'zbek she'riyatidagi yetuk san'atlar darajasiga olib chikish uchun jiddiy kirishganligidan va poetik tasvirda uning rang-barang qirralarini namoyish qilishga harakat qilganligidai dalolat qiladi.

Navoiyning o'zbekcha g'azallarida raddul-matla'ning ikki tipi mavjud: bu san'at matla' bilan ikkinchi baytda hamda maqtadagina ishlatilgan. «Xazoyinul-ma'oniyya»da uchraydigan 35 ga yaqin (to'liq «radd»ning o'zi) «radd»ning faqat uchta yigina (bittasi to'liq, ikkitasida bir so'z o'zgargan) matla' va undan keyingi baytga ta'allukli. Qolgan 31 tasida san'at matla' va maqtada ishlatilgan. Mazkur uchta g'azalning bittasi shoir ijodiyotining ilk davriga, ikkitasi esa yigitlik davriga mansub. Quyidagi baytlar bilan boshlanuvchi g'azal Navoiyning yoshlik davrida yaratilgan bo'lib, uning ijodidagi raddul-matla' san'atining dastlabki yetuk namunasi hisoblanadi.

¹⁸ Yo. Ishoqov. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983, 132-bet.

Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur,
Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jopimdadur.

Otashin la'ledururkim, anda muzmar bo'ldi jon,
Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur (2.5.84).

Shoirning maqsadi ma'shuqaning olov-otashdek yonib turgan va go'yo «otashin gul bargidan» tikilgan libosini mubolag'ali ravishda tasvirlash va uning kuchli ta'siri natijasida oshiq (shoir o'zi) ruhiy holatida yuz bergan chuqur o'zgarishlarni bo'rttirib ko'rsatishdan iborat. Shuning uchun ham shoir g'azalning boshidan musalsal (zanjirli) tashbihni qo'llaydi: birinchi misrada ma'shuqaning libosi cho'g'dek qizil gul bargiga nisbat beriladi, ikkinchi misrada esa shoir ruju' san'atini qo'llab, o'zining dastlabki fikrini rad etadi va undap xam mubolag'ali tashbihni keltiradi: uning egnidagi xil'at libos emas, balki shoir joniga tushgan o't -alanga. Keyingi bayt musalsal tashbihning davomi -yangi halqasi hisoblanadi. Ko'tarinki ruhda tasvir yanada yuqori pog'onaga ko'tariladi: ma'shuqa egnidagi xil'at bu cho'g'dek la'l bo'lib, uning ichiga jon (ma'shuqa vujudi) yashiringan. Uchinchi misrada badiiy abstraktsiya yuqori cho'qqiga chiqadi va dastlabki misraning qaytarilishi bilan tavsifning birinchi bosqichiga yakun yasaladi. Endigi vazifa tavsifni ana shu darajasidan tushirmay, tasvir pardalarida yuzaga kelgan taranglnkni saqlagan holda, davom ettirishdir. Biaobarin shoir keyingi bandda-boshqa san'at tajohili orif usulini ishga solib, zanjirli tashbihni davom ettiradi va keyingi bandlarda ana shu asosiy printsiptni saqlash (zanjirli tashbihni uzmay, izchil davom ettirish) uchun yangi usullarni qo'llaydi:

Jon qushi xunobidin tutmish maloxat naxli rang,
E libosi lolagun sarvi xiromonimdadur (2.5.84).

Yuqorida eslatilganidek, shu tipdagi raddul-matla'ning ikkitasida bittadan so'z o'zgargan. Ulardan biri quyidagicha:

Oxkim g'am tig'idin ko'ksumni qildi chok ishq,
Ohimdin ko'zumni ayladi g'amnok ishq.

Dard kirmak birla jon chiqmoqqa gar yo'l qilmadi,
Ne uchun g'am tig'idin ko'ksumni qildi chok ishq (2.3.227).

Birinchi misra mazmunan darak gap bo'lib, fikr (xabar) emotsional ruhda bayon qilingan. Xuddi shu misra kichik bir o'zgarish bilan keyingi baytda tak-rorlangan, lekin bu o'rinda butunlay yangicha aspektida bo'lib, oshikning ritorik so'rog'i shaklini olgan. Ishq g'am tig'i bilan oshiq ko'ksini chok etgan. U qat'iy xu-losaga keladi: ishqning maqsadi oshiqni o'ldirish. Uning ko'ksidagi chok esa dard oshiq badaniga kirib, jonni haydab chiqarishi uchun ochilgan yo'l. Bas, shunday bo'lmasa, nima uchun ishq oshiq ko'nglini g'am tig'i bilan chok etdi? Mazkur misollar mohiyat jihatidan bir tipga mansub. Lekin qo'llaiish xarakteri jihatidan ular orasida ma'lum darajada tafovut mavjud. Dastlabki she'rda xabar (kommunikativ qism, ya'ni 1-misra) bilan uni ta'rif tavsif etish (2-misra) parallel boradi (keyingi baytda tartib aksincha). Ikkinchi g'azalda esa boshqacharoq holni ko'ramiz: boshlang'ich bayt to'liq kommunikativ xarakterda. Uning poetik muhokamasi esa ikkinchi baytdan boshlanadi. Yuqoridagi ikki misoldan shunday xulosaga kelish mumkin: g'azal kompozitsiyasida amalga oshirilgan usul stilistik xarakterdagi kombinatsiya formal so'z o'yini emas, balki she'rning semantik strukturasi talabi bilan yuzaga kelgan hodisa, semantik strukturaning tashqi ifodasi hisoblanadi. Matla'dan keyingi bayt bilan bog'lik raddul-matla' uchun xos bo'lgan bir xususiyatni alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Bu ana shu san'atning she'rning umumiy ohaigi, oqimiga ko'rsatgan ta'siridan iborat. Dastlabki uchta baytda tasvir

shiddat bilan rivojlanib, To'rtinchi misrada esa ma'lum darajada to'xtalish hosil qilinadi. Go'yo shoir (demak o'quvchi ham) yuqoriga chiqib olgach, bir oz nafasini rostlab oladi va o'sha yuksaklikda yo'lini davom ettirishga kirishadi. Raddul-matla'ning eng' ko'p uchraydigan ikkinchi turi matla' va makta bilan bog'liq turida esa boshqacha manzaraning shohidi bo'lamiz. Bunda ana shu san'at g'azalning birinchi va oxirgi misrasidan iborat bo'lib she'rning butun qismlarini o'z ichiga olgan halqaga o'xshaydi. U bir bayning o'zida ham she'rdagi mazmunning boshlanishi, ham xulosasi yakunidan iborat. Raddul-matla'da semantik struktura bilan uning ifodalanish formasi o'rtasidagi mutanosiblik ko'zga yorqin tashlanib turadi. Chunki bu san'atning har ikki ko'rinishida uning she'r strukturasidagi o'rni mazmun doirasidagi mavqei bilan nihoyatda muvofiq keladi. Ma'lumki, har bir yetuk g'azalda asosiy g'oya butun she'rni bir butun sifatida uyushtiruvchi yetakchi kuch hisoblanadi. She'rda asosiy markazlashtiruvchi kuch hisoblangan ana shu tayanch g'oya yoki fikr turlicha shaklda ifodalanishi mumkin (bir misrada, bir baytda yoki ortiqroq baytda). She'rdagi bosh fikrning ifodalanish o'rni esa she'rning xarakteri bilan bevosita bog'liq: tavsifiy, tasviriylar va mulohazaviylar xarakterdagi g'azallarda u turli formalarda namoyon bo'ladi (birinchi baytda tezis sifatida, keyingi baytlarda xulosa sifatida va hokazo). Raddul-matla'ga g'azaldagi yetakchi fikrga munosabatnuqtai nazaridan yondashsak, uning tub mohiyati hamda har ikki tipiga xos yetakchi xususiyatlar aniqroq ko'zga tashlanadi. G'azalning birinchi va ikkinchi baytida ishlatilgan raddul-matla' tasvir jarayonining dastlabki bir bosqichiga mansub bo'lib, she'rdagi asosiy fikrni ta'kidlashga emas, balki tasvir, tavsif yoki fikr-mulohazaning muayyan bir tomonini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu san'atning matla' va maqtadagi tipi esa boshqacha xarakterga ega: uning vazifasi g'azaldagi yetakchi fikrni yoki fikr, tasvir bilan aloqador bo'lgan asosiy ob'ektni yoki uning muhim bir qirrasini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatishdan iborat. Bu san'atning asosiy funktsiyasi ta'kidlash, albatta. Lekin ana shu funktsiya, har bir she'rning tub mohiyati, xarakteri bilan bog'liq holda, turlicha aspektda namoyon bo'lishi mumkin. Bu, bir jihatdan, g'azalning xarakteri (tavsif, tasvir, mulohaza yoki ikkitasi qo'shilgan holda), ikkinchi tomondan esa she'r zamiridagi voqeaning asosiy tiplari bilan (sabab, oqibat, kontrast) bevosita aloqador. Bir nechta g'azal misolida biz ana shu san'at haqida umumiy tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Quyidagi g'azal Navoiy ijodining ikkinchi davriga (yigitlik davriga 1465–1476) taalluqli bo'lib, dastlab «Badoeul-bidoya» devoniga kiritilgan.

Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari,

Xossa, bayram avvali bo'lg'ay dog'i gul oxiri.
Har varak bir nomai ishratdurur fahm aylagil,
Tong yelidip abtar o'lmastin burun gul daftari. .
G'uncha xudi birla gul qolkonig'a yetti shikast,
Bo'lg'ali paydo sarig' savsanning oltui shashpari.
Gul adam shomig'a yuzlangan uchun zanbaq guli
Bor kumush mash'al dog'iyu xurdalardur axgari.
Lola kon uzra bo'yolib, o't uza anbar quyub,
Bor parixon, chiqmag'on g'oyib chechaklardur pari.
Nilufar tutmish sipehri lojuvardiy hay'atin,
Jolalar yuzinda andoqkim nujumu axtari.
Uksa la'liigni Navoiy, sanga xush kelmas vale

Xushturur gulgun kadah davrinda gulbargi tari (2.1.437).

Matla'ning birinchi misrasi tezis xarakterida bo'lib, unda shoirning asosiy fikri muxtasar ifoda etilgan. Ikkinchi misra esa g'azalning asosini tashkil etgan ana shu tayanch fikrni zamon va makon jihatidan konkretlashtiradi. Gulgun may to'ldirilgan qadah tevaragida yashnab turgan gul yaproqlarining bo'lishi nihoyatda yoqimli. Bu narsa, xususan, qizil gul mavsumining oxiri-yu yoz faslining boshlanishida («bayram» so'zi bu yerda keng ma'noda bo'lib, faqat xayit ma'nosida emas, umuman farovonlik fasli bo'lmish yozni ham o'z ichiga oladi) o'zgacha nash'a baxsh etadi. Shoir keyingi baytni o'z fikrini original istioraviy tasvir vositasida dalillashga

bag'ishlaydi: sen ana shunday jozibali va ayni zamonda, muvaqqat fursatni g'animat bil. Zotan, idrok etgan kishi uchun gul bamisoli har bir varag'i ishrat nomasidan iborat bo'lgan bir daftar. Tong yeli ana shu nozik daftarni barbod qilishi, shubhasiz. Binobarin ana shunday g'animat ayyomni behuda o'tkazish bu g'ofillik. Keyingi baytlarda shoir o'z fikrini dalillar asosida sharh etish uchun konkret tasvirga o'tadi. Keyingi to'rt bayt ana shu konkret faslning (qizil gul davrining tugashi) eng xarakterli jihatlarini namoyish qilishga qaratilgan. Natijada har bir bayt tamsiliy xarakterdagi lirik lavhaga aylangan. Qarang: sariq savsanning «oltin gurzisi» (paydo bo'lishi ochilishi) g'unchaning uchli jez qalpog'i bilan gulning qalqoniga shikast yetkazdi (3-bayt). Qizil gul yo'qlik shomig'a kirganligi uchun zanbaq guli (piyoz bo'tali, barglari uzun safsargul) bamisoli o'sha shomdagi kumush mash'alga o'xshaydi (4-bayt). Lola esa qonga bo'yalgan holda olov ustiga anbar (qora dog'lariga ishora) sepayotgan parixon (5-bayt). Nilufar to'q ko'k tusli osmon suratiga kirgan. Uning yuzidagi shudringlar esa bamisoli osmon sahnidagi yulduzlar. Shoir qizil gulning inqirozi davri-dagi gullar olami uchun xarakterli bo'lgan manzaraning eng xarakterli jihatlarini tanlab olib, istioraviy tasvirini beradi. Lekin bu g'azalda shoirning maqsadi tabiat manzarasining oddiy tavsifini berish zmas. G'azalda manzara tavsifi bilan shoirning mulo-hazasi yonma-yon boradi. Undagi har bir detal muayyan funktsiyaga ega bo'lib, shoirida o'ziga xos assotsiatsiya uyg'otadi va shoir mulohazalarining barchasi uning birinchi baytdagi xulosaviy fikrini hamda ikkinchi baytdagi da'vatini quvvatlashga xizmat qiladi. Shundan keyin shoir butun tasvirni yakunlab, umumiy xuloga o'tadi. Ma'lumki, shoirning asosiy g'oyasi va, umuman, g'azal markazida turgan xulosa tarzidagi fikri birinchi misrada tezis sifatida berilgan edi. G'azal xulosasida esa ana shu fikr yana takrorlanadi. Lekin oddiy takror so'nggi baytni she'rning oldingi uzvidan ajratib qo'yishi va tasvirdagi mantiqiy izchillikka putur yetishi mumkin. Mantiqiy takror uchun esa sabab kerak. Shu maqsadda shoir tasvirni ma'shuqa bilan bog'laydi: Navoiy la'ldek qizil labingni maqtasa, senga u qadar xush kelmaydi. «xushturur gulgun qadah davrinda gul bargi tari». Bu fikrning isboti, sharhi esa oldingi baytlarda batafsil keltirilgan. Shoir asosiy fikr, g'oyani tezis sifatida berib, keng izohlash hamda uni yana xulosa tarzida ta'kidlash va bunda mantiqiy izchillikni saqlash uchun katta mahorat ko'rsatgan. She'riy san'at sifatidagi misra har ikkala baytda aynan bo'lsa-da, lekin ularning har biri mansub bo'lgan baytlardagi fikriy va uslubiy muhitlar bir-biridan tafovut qiladi. Birinchi baytda poetik fikr to'g'ridan-to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, maqtada endi istioraviy xarakterga ega. Ya'ni bu yerdagi «gul bargi tari» iborasida ma'shuqaning la'ligaqizil labiga ishora ham bor. Demak, she'rning boshida umumiy tezis sifatida kelgan misraga she'rning xulosasida, dastlabki ma'nosini saqlagani holda, yangi vazifa yuklatilgan. Demak, shoir zining asosiy g'oyasi fikrini ta'kidlash uchun uni aynan takrorlash yo'lidan bormaydi, balki uning yangi qirralarini namoyon qilish va yangicha fikriy-uslubiy vaziyat yaratish orqali o'z muddaosiga erishadi. G'azalning semantik kompozitsiyasi, bizningcha, uch qismdan iborat: Bular tezis va undan chiqadigan xulosa (matla' va maqta) hamda ana shu tezisning isboti sharhidan iborat. G'azal asosidagi bosh fikr bir paytning o'zida ham tezis, ham xulosa sifatida kelgan. Bu, albatta, mazkur g'azalning xarakteri bilan bog'liq hodisa. Chunki g'azalning bosh tomoni to'g'ridan-to'g'ri mulohaza fikr bayoni bilan boshlanadi va keyingi baytlarda assotsiatsiya asosiy pozitsiyani egallaydi. Oxirgi baytda tasvir yana dastlabki holiga qaytadi. Tasvirning xarakteri turlicha bo'lgan she'rlarda bu san'atnivd (garchi asosiy funktsiyasi o'zgarmasa-da) konkret funktsiyasi bilan bog'liq mohiyati turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Navoiy ijodining to'rtinchi bosqinchi qarilik davriga mansub bo'lgan quyidagi g'azalni ko'zdan kechiraylik:

Kimsani dard ahli deb sirrimg'a mahram ayladim

Uz-o'zumni kuch bila rasvoi olam ayladim.

Ahli roz el ollida odam desa bo'lmas meni,

Uz-o'zumni kuch bila rasvoi olam ayladim.

Ahli roz el ollida odam desa bo'lmas meni,

Menki o'z rozimg'a mahram jinsi odam ayladim.

Bul ajab sirrimni maxfiy asramoq dushvor edi,

Barcha gar Farhod ila Majnunni hamdam ayladim.
 Uz g'amim ifshosidin olamnikim qildin qaro,
 Ish, o'zumi'a demakim, olamg'a motam ayladim. :
 Ayladim jonimg'a yuz bedod, lekin o'lmagi
 Sirrim ifshosi bila erda, ani ham ayladim.
 Elga rasvo bo'lmog'i bo'ldum, ne sud emdi, agar
 Yuz tuman mismor ila og'zimni mahkam ayladim.
 Kofiri ishq o'lmoq ermish fosh qilmok sirri ishq,
 Musulmonliqni ko'nglumga musallam ayladim.
 Shodmen ahli zamon birla zamondinkim, o'zum
 Ayladim o'z qismatim, anduh agar g'am ayladim.
 Ey Navoiy, dema sirring kimsaga, mundokki men
Kimsani dard ahli deb, sirring'a mahram ayladim (2.4.286).

Shoirni ana shunday qat'iy xulosa chiqarishga majbur etgan shart sharoitlar esa yuqoridagi baytlarda izchil izohlangan. Shoir boshiga tushgan og'ir kulfatlarning, «rasvoi olam» bo'lishining sababi nimada? Bunga ham uning o'zi: «Kimsani dard ahli deb, sirring'a mahram ayladim» va natijada «Uz-o'zumni kuch bila rasvoi olam ayladim», deb javob beradi. Shoirning asosiy maqsadi nomaqbul zamon va zamon ahlini qoralash, qattiq tanqid ostiga olish. Lekin u o'z muddaosiga to'g'ridanto'g'ri emas, bilvosita erishadi. Ya'ni o'z-o'zini malomat qilish (o'z zamonasi va zamondoshlariga o'rinsiz ishonch bildirganligi uchun), o'z shaxsiyatiga xos ayrim jihatlarni (aslida to'g'ri fazilat kishilarga ishonch, ochiq ko'ngillilik) qoralash orqali noahl qishilar va ularni yetishtirigan zamonani qoralaydi. Shu jihatdan epigramma xarakteridagi 8-baytdagi birinchi misra (Shodmen ahli zamon birla zamondinkim, o'zum) zamirida achchiq kesatiq, zaharxandalik yotadi. Zoxan, bu zamonda biror kimsaga yuragini ochib, sirdoshlik qilish mumkin emas. Men bila turib ana shu ishni qildim. Demak, barcha tashvishlar uchun boshqalar emas, mening o'zim sababchiman. Chunki ularning fe'lu atvori o'zo'zidan ma'lumku. She'r shoirning boshqalar uchun ibratli bo'lgan muhim xulosaga kelishi uchun turtki bo'lgan asosiy sababni bayon qilish bilan boshlanadi. Shundan keyin ana shu sababning oqibati va nihoyat, shoirning xulosasi keladi. Shoir she'rni o'zining muhim xulosasi (she'rdagi bosh fikr ham shu) sababini yana bir karra eslatish va alohida ta'kidlash bilan yakunlaydi. De-mak, mazkur g'azalda raddul-matla' shoirning asosiy g'oyasi, she'rdagi bosh fikrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan sababni ta'kidlashga xizmat qilgan. Yi-gitlik davriga mansub quyidagi g'azalda mazkur san'at yana boshqacharoq maqsad uchun ishlatilgan. She'r mulohazaviy xarakterda bo'lib, shoirning o'z ahvoli va ruhiy kayfiyati bayoniga bag'ishlangan:

Vahki, hijron sharbatidin bizga bo'ldi kom talx

Har kishi zahr ichsa, bo'lg'ay kom anga nokom talx.
 Hajr yetsa, may bila dedim ovung'ayman valek
 Yosiz bor emish ichmak bodai gulfom talx.
 Shomi hajrimdin ne ogah, ulki hijron tunlari
 Tongg'a tegru to'kmadi sho'robani bir shom talx.
 Sharbati sabr otini tutmaigki, bir oy hajridin
 Og'zima hayvon zulolin aylamish ayyom talx.
 Og'zidin achchiq so'z aytib, zohir etsa zahrchashm,
 Ayb emastur: pista sho'ru tong emas, bodom talx.
 Jomi hijron chekkali, bildimki, javrung sa'b zmas
 May necha talx o'lsa, ko'rmas oni zahroshom talx.
 Nosabur o'lmas, ko'ngulga stsa xunobi firoq,
 Ne uchunkim, talx may ichgandin o'lmas jom talx.
 Umr shahdi bas chuchukdur, lekin oxir qilmasa
 Marg zahri birla oni dahri nofarjom talx.
 Vasl jomidip, Navoiy, elga bo'ldi bahra no'sh,

Vahki, hijron sharbatidin bizga bo'ldi kom talx (2.4.247).

G'azal asosida yor vaslidan mahrum oshiqning hijrondagi og'ir kayfiyati va achchiq kechinmalari yotadi. She'r to'g'ridan-to'g'ri ana shu muddaoning istioraviy («hijron sharbati») bayoni bilan boshlanadi. Lekin barcha baytdagi tasvir bir xil bayondan iborat emas. Poetik tasvirning jozibali bo'lishi uchun shoir turlicha usullarni ishga soladi. Jumladan, birinchi baytda qo'llanilgan tamsiliy tasvir psixologik pa-rallelizm (ikkinchi misra birinchi misradagi fikrning real ifodasi uchun tamsil sifatida parallel keltirilgan) san'ati 5, 6 va 7-baytlarda ham mahorat bilan ishlatilgan. Epigramma tarzidagi 8-bayt lirik chekinish xarakterida bo'lib, katta umumlashma sifatidagi xulosa hisoblanadi va u radifga taalluqli mazmun vositasida umumiy fon bilan turadi. Lirik qahramonning achchiq qismati bayonn g'azalning boshida to'g'ridan-to'g'ri. izhor-xabar tarzida berilgan bo'lsa, uning maqtaida kontrast (tazod) usuli bilan keltiriladi (el va biz) el vasl jomidan bahramand bo'ldi, bizga esa nasiba komimizni hijron sharbatndan achchiq kilmoq. Ana shu kontrast usuli dastlabki xabar bayonning yangicha tarzda kuchliroq jaranglashi uchun imkoniyat yaratgan. Igitlik davriga mansub quyidagi g'azalda raddul-matla' she'rdagi bosh fikrni emas, balki yetakchi fikrning ma'lum bir jihatini ta'kidlash va bo'rgtirish uchun xizmat qilgan:

Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun,
Nishona har biriga dermen ushbu xasta bosh o'lsum.

Navoiy ashk durridek, tilarkim, ko'zda yer bergay,

Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun (2.4.256).

Shoirning niyati o'zining yorga nisbatan kuchli sevgisi va sadoqatini izhor va isbot etish. Shuning uchun ham u she'rni ana shu maqsadning yorqin poetik ifodasi uchun imkon beruvchi mubolag'ali tasvir bilan boshlaydi va xuddi ana shu momentni xotimada takrorlaydi. Lekin keyingi o'rinda mubolag'a oldingisiga nisbatan yanada nozikroq va yuksakroq daraja kasb etgan (birinchi baytda shoir yor ishq havosida yog'adigan toshlarga boshini nishona qilsa, oxirgi baytda u ana shu toshlarga ko'z yoshi donalaridek o'z ko'zlaridan joy bermog'chi). Mana bu g'azalda esa «rad» san'ati she'r-dagi bosh fikrning o'zini emas, balki ana shu fikr yo'naltirilgan, shoirdagi fikr-mulohazalarning yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan asosiy ob'ektni (bu yerda murojaat ob'ektini) ta'kidlashga qaratilgan. Lekin asosiy fikr matla'da umumiy planda, maqtada esa konkret shaxs (Navoiy) bilan bog'liq holda ifodalangan:

Ey gadoyingning gadoyi barcha ahli taxtu toj!
Qim gadoyingdur, anga yo'k taxt ila toj ehtiyoj...

To gadoyingdur Navoiy taxt ila toj istamas,

Ey gadoyingning gadoyi barcha ahli taxtu toj! (2.4.74).

Navoiy devonida murojaat ob'ektini ta'kidlashga qaratilgan raddul-matla'ning o'nga yaqin namunasi mavjud. Lekin ularning aksariyati ma'lum maqsadga qaratilgan rasmiy she'rlardan iborat. Xullas, Navoiy g'azaliyotida qo'llangan raddul-matla' san'ati she'rdagi bosh g'oya fikr, xulosa yoki uning ayrim jihatlarini, yetakchi fikr, xulosaning yuzaga kelishi uchun turtki bo'lgan asosiy sababni, shuningdek, shoirning fikr, murojaat ob'ektiga nisbatan emotsional munosabatini ta'kidlash va alohida bo'rt-tirish uchun xizmat qiladi. Ayni zamonda bu san'at g'azalga o'ziga xos ohang va tugallik bag'ishlaydi. Navoiyning bu san'atga munosabati ijodiy fao-liyatining barcha bosqichlarida bir darajada emas. Quyidagi jadval bu haqda to'liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi:

	7 bayt	8 bayt	9 bayt	10 bayt	Jami
I-yoshlik davri:	4	-	1	-	5

II–yigitlik davri:	11	2	2	1	16
III –o’rta yosh davri:	8	-	-	-	8
IV–qarilik davri:	4	-	1	-	5
Jami:	27	2	4	1	34

Ko’rinib turibdiki, mazkur san’at ishlatilgan g’azalning 50 foizga yaqini yigitlik davriga to’g’ri keladi. Eng asosiy qismi esa yetti baytli g’azallarga mansub. Bu hol, albatta, bir tomondan, shoirning ijodiy izlanishlari va evolyutsiyasi, ikkinchi tomondan, janrning o’ziga xos spetsifikasi bilan uzviy aloqador. Demak, Navoiy ijodiy faoliyatining ana shu davrida (1465–1476) mazkur san’at uning e’tiborini ko’proq jalb etgan. Bu tasodifiy hol emas, balki shoirning poetika sohasidagi ijodiy izlanishlarining bir qirrasi hisoblanadi.

Umuman, Alisher Navoiyning raddul- matla’’ san’ati asosida yaratilgan g’azallari o’zbek g’azaliyotining poetik rivojiga katta hissa bo’lib qo’shildi, desak mubolag’a bo’lmas.

3.2. Yarim raddul – matla' san'ati

«Xazoyinul-maoniy»da raddul matla''ga yaqin bo'lgan yana bir san`at mavjud. Bu san`atda butun misra to'liq emas, balki uning yarmi (ba`zan yarmidan ozrog'i, ba`zan ortiqrog'i) takrorlanadi. Raddul-matla' bilan raddul-qofiya oralig'ida bo'lgan bu san`atni shartli ravishda yarim raddul-matla' deb atash mumkin. Binobarin, bu san`atda, bir tomondan, g'azalning semantiyus strukturasi bilan bog'langan kompozitsion usul, ikkinchi tomondan esa raddul-qofiya uchun xarakterli bo'lgan stilistik kombinatsiya qo'shilgan holda namoyon bo'ladi. Devondagi o'n bitta yarim raddul-matla'ning sakkiztasida (biz uchratgan) sintaktik-stilistik kombinatsiya g'azalning matla'i va ikkinchi baytida, uchta she'rda esa matla' bilan maqtada ishlatilgan. She'rning umumiy mazmuni doirasida tutgan o'rni, undagi tasvirning oqimiga ko'rsatgan ta'siri jihatidan olib qaraganda, bu san`at bilan raddul-matla' orasida ma'lum darajada yaqinlik ko'zga tashlanadi. «G'aroyib us-sig'ar»dagi g'azalning takroriy misrasida faqat bir so'z o'zgargan:

Kema og'zy demakim, ishqingda ko'ksun chokidur
Kema og'zi go'yo ishqida ko'ksun chokidur (2.1.264).

Chunonchi birinchi va ikkinchi baytlarda u tasvir jarayonidagi muayyan bir bosqichni ifodalasa, matla' bilan maqtada tasvirning boshlanishi va xotimasi tarzida ko'rinadi. Yoshlik davri lirikasidan:

Yog'lig'ing ilgimda, ashkimni ravona aylaram
Ko'zga surtub, ashk aritmog'ni bahona aylaram.

Ul ko'zumga chun yetib, taskin topib giryonlig'i,
Ko'zdin olg'ach, yona ashkimni ravona aylaram.

Yona yetkach ko'zga, ashkim tursa, olurmen oni
Yona borsa, chorasin bu nav` yona aylaram (2.1.266).

Lirik syujetli bu g'azalda mazkur san`at harakatning davomiyligini ko'rsatadi va lirik qahramon holati bilan bog'liq xarakterli bir jihatni yanada bo'rttirish, ta'kidlashga xizmat qiladi. Igitlik davri lirikasidan:

Menda bir o'tdurki, **gar desam: dam ursam, aflok o'rtanur**
Asrasam ko'nglumda, jonu jismi g'amnok o'rtanur.

Mehr emas, ohim o'tidin ko'kka yetmish bu sharar
Ayb etmastur, **gar desam: dam ursam, aflok o'rtanur** (2.1.267).

Birinchi misra qat'iy xulosa tarzidagi bayon-xabardan iborat. Misraning ergashgan qo'shma gap shaklidagi takrorlanuvchi yarmi uning bosh qismidagi fikrni («menda bir o'tdurki») izohlashga xizmat qilgan. Ikkinchi baytda esa u ma'lum darajada mustaqil, neytral holatda bo'lib, husni ta'lil san'ati ishlatilgan oldingi misra («mehr emas») uni izohlashga xizmat qilgan va natijada u lirik qahramonning umumiy vaziyatini ifoda qiluvchi ob'ektiv xulosa xarak-teriga ega bo'lgan. Qarilik davriga mansub quyidagi g'azalda yana bosh-qacharoq manzarani ko'ramiz:

Upuy olsam **eshiking tufrog'ini yostanibon,**
Saltanat taxtig'a chikmoq tilamon uyg'onibon.

It kibi har necha kavsang, urubon toshu kesak,
Yona kelgum **eshiking tufrog'ini yostanibon** (2.5.271).

G'azalda tasvir kontrast asosiga qurilgan. Lirik qahramonning asosiy maqsadi yorga nisbatan o'z muhabbati va sadoqati qudratini isbotlash. Buning uchun u tazod asosiga qurilgan mubolag'ali tasvir usulini qo'llaydi. Matla'da shoirning maqsadi umumiy tarzda ifodalangan. Keyingi baytda u o'z fikrini boshqacha aspektda (konkretroq holda) yana ham kuchliroq mubolag'a tarzida davom ettiradi. «Rad» shaklidagi ibora birinchi misrada shart ma'nosidagi ergash gap tarkibida kelgan bo'lsa, keyingi baytda u lirik qahramonning qat'iy qarorini bildiruvchi bosh gapni hosil qilishda ishtirok etgan. Endi bu san'atning ikkinchi tipi matla' va maqtada ishlatilishiga doir ayrim namunalarni ko'zdan kechiramiz. Yoshlik davri lirikasidan:

Mayda bo'lsa manga **ul la'li shakarxand gazak**,
Zahr bo'lsun, tilar o'lsam shakaru qand gazak.

Ey Navoiy, may agar zahrdurur, ichsa bo'lur,
Kimsaga gar bo'lur **ul la'li shakarxand gazak** (2.2.221).

Matla'dagi ma'no konkret shaxs (I shaxs) shoirning «men»i bilan bog'langan bo'lib, asosiy fikr konkret shaxsning o'z kechinmalari bilan uzviy bog'langan xulosasi tarzida namoyon bo'lgan («manga», «tilar o'lsam»). «Rad» ishlatilgan maqtada esa yetakchi fikr umumiy xulosa sifatida keladi («kimsaga», «ichsa bo'lur»). Matla'dagi konkret mazmunning asosini tashkil etgan fikr ibora maqtada umumiy xulosaning asosi sifatida, lekin bo'rttirilgan holda qaytarilgan. Mana bu mashhur g'azal qarilik davriga mansub:

Meni ishqdin **man` etar soda shayx**
Dema soda shayx, aytkim: loda shayx.

May ustidagi xascha qilma hisob,
Agar suv uza solsa sajjoda shayx.

Eranlardin o'zni tutar garchi, bor
Ukush zebu ziynat bila moda shayx.

Navoiy tilar soda yuzluk yigit
Ne g'am, gar ani **man` etar soda shayx** (2.5.298).

Kommunikativ xarakterdagi birinchi misra shoirning shayx haqidagi tanqidiy mulohazalari izchil ifodalangan keyingi baytlarning yuzaga kelishi uchun turtki, asosiy sabab hisoblanadi. Keyingi baytlarda shayx shaxsi uchun xos salbiy jihatlar keskin fosh ztiladi va maqtaning birinchi misrasida qat'iy bir fikrga kelinadi. Birinchi misrada keyingi fikrlarni qo'zg'atgan sabab tarzida kelgan xabar-mazmun oxirgi baytda shoirning qat'iy xulosa tarzidagi fikrini bo'rttirishga xizmat qiluvchi sifatida qaytariladi. Bu o'rinda endi u oddiy xabar tarzida emas, balki shoirning konkret munosabati bilan bog'lik holda tak-rorlangan. Demak, bu san'at raddul-matla' bilan raddul-qofiya o'rtasidagi o'ziga xos poetik kombinatsiya bo'lib, she'rning semantik strukturasi bilan bevosita aloqador kompozitsion-stilistik usullardan biri hisoblanadi. Bu san'at ishlatilgan g'azallarning to'rttasi Navoiy ijodining ilk davriga, uchta yigitlik va yana uchta qarilik davriga (o'rta yoshda yo'q) to'g'ri keladi. Demak, bu san'at raddul-matla'ga nisbatan ishlatilgan va shoirning unga munosabati ham boshqa charoq xarakterda.

Alisher Navoiyning raddul-matla' va yarim raddul-matla' san'ati asosida yaratilgan g'azallari shoirning poetic mahoratini belgilovchi mezonlardan biridir.

XULOSA

Alisher Navoiy lirik asarlari jamlangan “Xazoyin ul-maoniy” devonida ikki yarim mingdan ortiq g’azal mavjud. Sharq adabiyotida biror shoirga bunchalik ko’p g’azal yozish nasib bo’lmagan, ammo gap faqat sona emas. Navoiy qalbidan quyilib chiqqan g’azallarning daho ijodkorning benazir san’ati va teran tafakkurdan guvohlik beradigan badiiy durdona, mo’jizadir. Bu badiiy kashfiyotlarning yaratilganligiga besh asrdan o’tdi, lekin kecha yozilganday hamon ruhimiz, shuurimizni g’alayonga solib, dillarga halovat bag’ishlaydi, o’qigan sari yana o’qigingiz, baytlar qatidagi sehrli va sirli ma’nolarni teranroq, to’laroq anglab olingiz keladi. Buyuk o’zbek shoiri salafлари ijodxonasida kamolga yetgan ko’hna janrning imkoniyatlarini istifoda etib, bemisl mahorat ko’rsatish, hazon bo’lmas she’riy gulshanlar yaratish barobarida o’zi mustaqil ravishda yangi ifoda usullariyu uslublar ixtiro qildi, ijodiy tajribalar, ulkan izlanishlar yo’lidan borib g’azal inkishofini baland cho’qqilarga olib chiqdi. Bu go’zal g’azallar o’zining badiiy jilosi bilan ham ko’zni qamashtiradi.

Biz bitiruv malakaviy ishida shoir g’azallarining yuksak badiiyatini ta’min etgan takrorga asoslangan lafziy san’atlardan ayrimlarini tahlilga tortdik va quyidagi xulosalarga keldik.

✓ Alisher Navoiy lirikasi o’zbek mumtoz she’riyatining yuksak cho’qqisidir. U she’riyatning 16 xil mumtoz janrlarida yaratilgan bo’lib, jamiyat va inson hayotining xilma-xil mavzularini qamrab oladi. Shoir lirikasi mazmun va hajm jihatidan Abdurahmon Jomiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning “eng ko’b va xo’b” degan yuksak baholariga sazovor bo’lgan she’riyatdir.

✓ Alisher Navoiy lirikasi o’zining chuqur va boy mazmuni bilangina emas, balki go’zal badiiyati bilan ham she’riyat ahlining qalbini o’ziga rom etgan. Unda 100 dan ortiq she’riy san’atlar istifoda etilgan.

✓ Shoir she’riyatida takrorga asoslangan tasdir, tasbig’, mukarrar, raddul-matla’ kabi san’atlar g’azallardagi fikrning yorqin ifodasiga xizmat qilgan.

✓ Xususan, takrorga asoslangan tasdir va tasbig’ san’atining go’zal namunalari yaratgan. Shoirning quyidagi baytida tasdir san’ati mavjud, ya’ni birinchi misra boshida va ikkinchi misra oxirida “gul” so’zi takrorlanib kelmoqda va tasdir san’atini yuzaga keltirmoqda.

Gul yori safar aylab Navoiy jonig’a
Har biri bir toza qonlig’ dog’i hijron bo’ldi gul (23.127).

✓ Ma’lumki birinchi misra oxirida qofiya bo’lib kelgan so’z ikkinchi misra boshida qaytarilishi tasbig’ san’atidir.

Furqatingdin za’faron uzra to’karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag’rimdin erur pargolalar (2.5.8).

Bunda takrorlangan so’zlar ifodalanayotgan ma’nolarni, fikrlarni ta’kidlashga xizmat qiladi, misralarni bir-biriga bog’laydi, baytning musiqiylikini, misralar ohangdoshligini ta’minlagan.

✓ Takrir “takrorlash” ma’nosini ifodalovchi san’atdir. Takrorlash vositasida so’z ma’nosini, uning mohiyatini ta’kidlab ko’rsatish bu san’atning mohiyatini tashkil etadi. Masalan, Navoiyning quyidagi baytidagi “o’rtadi” so’zi takror qo’llanishi ifodalanayotgan ma’nolarni kuchaytirishga, kechinma va tuyg’ular mavjining benihoyaligini aks ettirishga xizmat qilgan, binobarin, o’jiz qiyofasini, uning ichki olamini yorqin va ta’sirchan ifodalashga imkon bergan.

Dema, ishqim nayladikim ro’zg’oringdur qaro,
O’rtadi, ey qotili nomehribonim, o’rtadi (2.3.340).

✓ Mukarrar “qayta-qayta, ust-ustiga” ma’nolarini ifodalaydi va baytning har ikki misrasida juft so’zni qo’llashni nazarda tutuvchi san’atdir. Bu san’at fikrni kuchaytirish bilan

birga baytning musiqiyligini kuchaytiradi, g'azal jozibadorligini orttiradi. Quyidagi baytda mukarrar san'atining go'zal namunasi yaratilgan:

Bodadin gul-gul ko'rub ul yuzni, oning hajridin,
Chok-chok ulg'ay ko'nguldek taq-bataq qon bo'ldi gul (2.4.317).

✓ G'azal matla'sining birinchi misrasini asar oxirida, maqta'ning ikkinchi misrasida aynan takrorlashni nazarda tutuvchi va "matla'ni takrorlash" degan ma'noni ifodalovchi "raddul matla'" san'ati, avalo, g'azal kompozitsiyasining yahlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, g'azalning birinchi misrasida ilgari surilgan fikrni oxirgi misrada ta'kidlash orqali asar g'oyasining kitobxonga aniq va yorqin yetib borishini ta'minlaydi. Navoiyninig "Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali fikrimizning yorqin dalilidir.

✓ Umuman, shoir she'riyatida qo'llangan takrorga asoslangan lafziy san'atlar so'z va so'z birikmalari takrori orqali asar g'oyasini ta'kidlashga, kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, shoir g'azaliyotinig jozibadorligini, badiiy go'zalligini ham ta'min etgan.

I L O V A L A R
T a k r i r s a n ' a t i n a ' m u n a l a r i

Moziyu mustaqbal ahvolin taqallum ayla kam,
Ne uchunkim, dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu dam.

***** ***** *****

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.
Sen aga tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

***** ***** *****

Qilibmen oncha isyonkim, agar do'zax aro kirsam,
Mening behad gunohim birla do'zax sarbasar to'lg'ay.
Xudoyo avf osonroqdurur, yo'qsa g'azab qiksang,
Magarkim o'zga do'zah, o'zga o't, o'zga azob o'lg'ay.

***** ***** *****

Hajringda mening sabrima juz nuqson yo'q,
Ko'nglim aro g'ayri nolavu afg'on yo'q.
Jonimg'a hayot umidi xud imkon yo'q,
Yo'q, yo'q, yo'q, sabr yo'q, ko'ngul yo'q, jon yo'q.

M u k a r r a r s a n ' a t i n a ' m u n a l a r i

Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang **zor-zor**
Kim, solodur **goh-goh** o't go'nglumga tushkan xorxor

Istamas bo'lsa sabo **bir-bir** ko'ngul jam aylamak,
Nega zulfungni parishonlig'din aylar **tor-tor**?

Sen quyosh birla munosibsen o'yunda, xo'blar
Ikki-ikki chunk! kirgaylar otoshib **yor-yor**.

Qo'rqaramkim, bo'lmag'ay ozurda nozuk qomating,
Egningga **xush-xushki** solmish ja'di anbarbor bor.

Xalqa-xalqa bo'ynuma solmish tanobi zulfmi,
Jurmi ishqing'a magar hukm ayladi dildor dor.

Ey Navoiy, bo'ldi ill but kofiri otashparast,
Ne ajab, **vah-vah**, gar ursa joningga zunnor nor.

***** *****

Telba ko'nglum topsangiz, ey yor ko'yi itlari,
To'sh-to'shidin tishlabon **parkand-parkand** aylangiz.

Bu damodam oxim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning **bot-bot** dami, andoqki aylar mehr fosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersajon, ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, **bir-bir** qo'y g'usudir barcha bosh.

Navoiy o'lgay edi bo'lmasa umidi vasl,
Bu qasdlarki, anga hajr **dam-badam** qiladur

***** *****

Tola-tola nay o'qung ko'ksunda go'yo sindikim,
Tevruluptur notavon ko'nglumda **bir-bir** tolalar.

Lahza-lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,
Keld I jon og'zing'a -yu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Qotiq el jismidin anburklar olmay naqd emas vosil
Ki tog'ni **pora- pora** qilmayin la'l o'lmadi hosil.

**Alisher Navoiyning raddul matla'' san'ati asosida
yaratilgan g'azallari**

- 1 Yuzi oldida gul nazzora qildim xo'b emas ancha,
Qaddi qoshig'a boqdim sarvg'a marg'ub emas ancha.
- 2 Soqiyo xijron tunidur boda tut
Ul quyosh birla bu shomimni yorut.
- 3 Qaddi ruxsorig'a yo'q gulshanda bir monand shoh
Kim sapidor uzra guldin aylamish payvand shoh
- 4 Holima yor taraxxum qilmas,
Yig'lasam zor tabassum qilmas.
- 5 Otashin gul bargidin hilatki jonimdadur
Hilat emas, ul bir o'tdurki, mening jonimdadur
- 6 O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz
Notavon ko'nglimda ul ey ishtiyoqdur hanuz
- 7 Nomasi qo'ynimda baskim iztirob aylar ko'ngil
O'pgali chiqmoqqa shitob aylar ko'ngil
- 8 Shikeb uyin buzadur benavo ko'ngil netayin
Xaroblig' qiladir muftalo ko'ngil netayin
- 9 Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin,
Yo ko'ngil topdi Masih anfosidin jon mujdasin.
- 10 Ul musofirkim erur barcha sipoh ahlig'a shoh
Jismi ruhi xokisordurkim anga qadri sipoh
- 11 Yuz urma har taraf ey sho'x-u roz qilma meni
Qaror tut nafase beqaror qilma meni
- 12 Ey ko'ngil chunki erur yor mayi furqati talx
Kimki bu mayni ichar bo'lsa ne tong riqfati talx
- 13 Lojuvarding qoshing uzra zarvaraq tabohmudur,
Yo magar ko'k toqi anjumani raxshonmudur.
- 14 Kimsani dard ahli deb sirringa mahram ayladim
- 15 Ey Navoiyning gadoyi barcha ahli taxt –u toj
- 16 Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari
- 17 Vahki xijron sharbatidin bizga bo'ldi kom talx
- 18 Kema og'zi demakim ishqingda ko'ksim chokidur.

19 Agar ishqing havosida yog'ar har to'la tosh o'lsun

20 Tanimda zaifdurur to isitmish ul dilxoh

21 Ko'z qonidin dema etagim lolavordur,
Kim lolavordur ko'xi dard etagi lolavordur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

IIJTIMOIY–SIYOSIY ADABIYOTLAR:

- 1.1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –Toshkent: O`zbekiston, 1996.
- 1.2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O`zbekiston, 2000.
- 1.3. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida. –Toshkent: O`zbekiston, 2008.
- 1.4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
- 1.5. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta`minlash - bizning oliy maqsadimiz. –Toshkent: O`zbekiston, 2009.
- 1.6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. –Toshkent: O`zbekiston, 2010.
- 1.7. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi. "O`zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil, 1-sentyabr.
- 1.8. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhiom omilidir. "Ishonch" gazetasi, 2010 yil, 8-dekabr.
- 1.9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz-farovonligini oshirishga xizmat qiladi, "Xalq so'zi", 2011 yil, 22-yanvar.
- 1.10. Karimov I.A. " O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". – Toshkent: O`zbekiston, 2011.

II. M A N B A L A R :

Alisher Navoiy. Badoe' ul-bidoya.. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 1-jild, -Toshkent, Fan, 1987.

Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 3-jild, -Toshkent, Fan, 1988.

Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 4-jild, -Toshkent, Fan, 1989.

Alisher Navoiy. Badoe' ul-vasad. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 5-jild, -Toshkent, Fan, 1990.

Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild, -Toshkent, Fan, 1990.

Alisher Navoiy. Bir paripaykar g'ami. – Toshkent.: Sharq, 2006.

III. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR:

- 3.1. Atoulloh Husayniy. Badoe' us-sanoe'. –Toshkent: Fan, 1981.
- 3.2. R.Vohidov, H.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. –Toshkent: 2006.
- 3.3. Ishoqov Yo. Qaytarish san'ati. O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 2-son.
- 3.4. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. –Toshkent, Fan, 1983.
- 3.5. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. –Toshkent: Zar qalam, 2006.
- 3.6. Mumtoz adabiyot manbalari. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2009.
- 3.7. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. –Toshkent: Fan, 1962.
- 3.8. Navoiy asarlari lug'ati, -Toshkent: Fan, 1971.
- 3.9. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent.: Fan, 1979.
- 3.10. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Fan. 2005.
- 3.11. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 2-jild. –Toshkent: Fan. 1977.
- 3.12. Qurbonov A. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. 2-qism. Ma'ruzalar matni. – Namangan: 2001.
- 3.13. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999.
- 3.14. Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. –Toshkent: Universitet, 2001.

IV. INTERNET MA'LUMOTLARI:

- 4.1. <http://www.gpntb.ru/>
- 4.2. <http://www.natlib.uz/>
- 4.3. <http://library.samdu.uz/>
- 4.4. <http://www.faaak.uz/>
- 4.5. <http://www.literature.uz/>